

**DAVLAT BOJXONA QO‘MITASI**  
**BOJXONA INSTITUTI**

**D.Yu. Xabibullayev, J.T.Allayorov**

**FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI**

*(fuqarolik protsessida sud hujjatlarini qayta tekshirish)*

**O‘quv qo‘llanma**

**TOSHKENT – 2020**

**UO'K 347(075)**  
**KBK 67.404ya72**  
**X64**

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti Kengashining 2019 yil 27 dekabrdagi majlisi qaroriga asosan chop uchun tavsija etilgan (bayonnomma № 11/4.1).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 30-iyundagi 359-sonli buyrug’iga asosan nashrga ruxsat berildi. Ro’yxatga olish raqami: 359-223

**D.Yu. Xabibullayev, J.T.Allayorov.** Fuqarolik protsessual huquqi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, 2020. –110 b.

**Taqrizchilar:**

**N. Qo‘ldoshev** – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Fuqarolik-huquqiy fanlar” kafedra boshlig‘i, yu.f.n., dotsent  
**Sh.Nazarov** – Fuqarolik ishlari bo‘yicha Shayxontohur tumanlararo sudi sudyasi, yu.f.n.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada “Fuqarolik protsessual huquqi” fanining sud hujjatlarini qayta tekshirish institatlari, ya’ni sud hujjatlarini appellatsiya, kassatsiya nazorat tartibida va yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta tekshirish tartibi, muddatlari va ishni sudda ko‘rish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur o‘quv qo‘llanma kursantlarni ushbu mavzular bo‘yicha mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quv qo‘llanmada har bir bobga oid nazorat savollari, kazuslar, ushbu fanga oid o‘qish uchun tavsija etilgan adabiyotlar ro‘yxati o‘z aksini topgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma nafaqat oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun, balki amaliyotchi va ilmiy xodimlar, shuningdek keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

**ISBN 978-9943-7283-9-4**

©D.Xabibullayev, J.Allayorov, 2020 y.  
© Bojxona instituti, 2020 y.

# MUNDARIJA

Kirish.....	4
-------------	---

## I BOB. APELLATSIYA INSTANSIYASI SUDIDA ISH YURITISH

1.1 Apellatsiya instansiyasi sudi ahamiyati va sud hujjatlarini qayta ko‘rishning umumiy qoidalari.....	6
1.2 Apellatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi va muddati.....	13
1.3 Apelllyatsiya instansiyasi sudida ish ko‘rish tartibi va muddatlari.....	19
1.4 Apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari.....	28
1.5 Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan apellatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish).....	29

## II BOB. KASSASIYA INSTANSIYASI SUDIDA ISH YURITISH

2.1 Kassatsiya shikoyati (protesti) berish tartibi va muddati.....	36
2.2 Kassatsiya instansiyasi sudida ish ko‘rish tartibi va muddatlari.....	41
2.3 Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari.....	44
2.4 Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish).....	45

## III BOB. NAZORAT INSTANSIYASI SUDIDA ISH YURITISH

3.1 Nazorat instansiyasi sudida ish yuritishning mohiyati va rivojlanishi...	50
3.2 Nazorat shikoyatini (protestini) berish tartibi va muddati.....	55
3.3 Nazorat instansiyasi sudida ish ko‘rish tartibi.....	61
3.4 Nazorat instansiyasi sudining vakolatlari.....	64

## IV BOB. QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO‘YICHA QAYTA KO‘RISH

4.1 Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish tushunchasi, asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari.....	67
4.2 Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza berish tartibi, muddatlari va ishni ko‘rish..	70
43 Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishning nazorat tartibida ish ko‘rishdan farqli jihatlari.....	73

Ilovalar .....	77
----------------	----

## Kirish

Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining himoya qilinishini ta’minlashda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning roli oshib borayotganligini alohida qayd etish joiz.

Ma’lumki, fuqarolik sud ishlarida ishtirok etuvchilarining huquqlari faqat birinchi instansiya sudidagina emas, balki ishlarning yuqori instansiya sudlarida ko‘rilishida ham himoya qilinadi. Agar ishning dastlabki sudda ko‘rilishida qonun talablariga rioya qilinmagan bo‘lsa va ish holatlarining murakkabligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, bunday xatoliklar appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rilib, aniqlanishi va tuzatilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi bo‘lmish **qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan** biri sifatida odil sudlojni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish; jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish kabi vazifalar nazarda tutilgan edi.<sup>1</sup>

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilinishi bilan fuqarolik ishlarini appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida va yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish institutlari birmuncha takomillashdi.

Shu ma’noda mazkur o‘quv qo‘llanmada sud hujjatlarini appellatsiya, kassatsiya,

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хуҗжатлари тўплами, 2017 йил 13 февраль, 6-сон, 70-модда.

nazorat tartibida va yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta tekshirish institutlariga oid asosiy tushunchalar, shikoyat(protest) berish tartibi, muddatlari, ishlarni yuqori instansiyasudlarida ko‘rish tartibi, muddatlari, vaoklatlari, ularning bir-biridan farqlari, mavzuga oid nazorat savollari, kazuslar va o‘qish uchun adabiyotlar, ilova sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlaridan ko‘chirmalar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi amaliyoti materillari, umumlashmalari berilgan. Ayniqsa, mazkur qo‘llanma hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, kursantlar tomonidan sohaga oid nazariya va amaliyot materiallarini tizimli ravishda va o‘z vaqtida o‘zlashtirilishini tashkil va tahlil etish, talabalarda mustaqil ishslash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma bojxona kursantlarini fuqarolik protsessual huquqi fanining muhim institutlari haqida tushuncha, bilim va ko‘nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **I BOB. APELLATSIYA INSTANSIYASI SUDIDA ISH YURITISH**

### **1.1. Apellatsiya instansiyasi sudi ahamiyati va sud hujjatlarini qayta ko‘rishning umumiy qoidalari**

Sud tizimining bosqichma-bosqich demokratlashtirilishi, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan sud hokimiyatining mustaqilligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy prinsipga qat’iy rioya etilishi mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar orasida markaziy o‘rinni egallaydi.

O‘z navbatida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi ta’minalash, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida 2016 yil 21 oktabr kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “Sud-huquq tizimini yanada isloq qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 4850-sonli Farmoni<sup>1</sup> qabul qilingan. Mazkur Farmon bilan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, shuningdek odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloq qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda shu asosda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizni yanada rivojlantirishga, qonun ustuvorligi hamda sud-huquq islohotlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi, sudsarning chinakam mustaqilligini ta’minalashga oid Xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan norma va qoidalari, odil sudlov standartlarini keng darajada o‘zida ifoda etgan, chuqur o‘ylangan va uzoqni ko‘zlagan hujjat sifatida ona diyorimizni yanada

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21 октябрдаги “Суд-хукуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг хукуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ 4850-сонли Фармони // "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2016 йил 31 октябрь, 43-сон, 497-модда.

rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Shu ma'noda Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasida "Konstitutsiyamizda oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan inson huquqlarini ta'minlash masalasi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi. Buning uchun sud hokimiyatining chinakam mustaqilligiga erishish naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini albatta barchamiz yaxshi tushunamiz. Bu borada yaqinda qabul qilingan Farmon ijrosini ta'minlash birinchi darajali vazifamizdir" deb alohida ta'kidlagan edi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan ustuvor yo'nalishlarni ijro etish maqsadida 2018 yil 22 yanvarda O'zbekiston Respublikasining yangi Fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilindi va 2018 yilning 1 apreldan amalga kiritildi.<sup>2</sup>

2018 yilning 1 apreldan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Fuqarolik protsessual kodeksining 44-bobi "Apellatsiya instansiysi sudida ish yuritish" deb nomlandi. Mazkur bobda appellatsiya shikoyati (protesti) berish tartibi, muddati, appellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'rib chiqadigan sudlar, appellatsiya instansiysi sudining vakolatlari, birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) huquqi, ularni ko'rib chiqish tartibi bilan bog'liq qator masalalar o'z ifodasini topdi.

Shu o'rinda appellatsiya so'zining ma'nosiga to'htalib o'tsak. Appellatsiya so'zi "appelatio" – lotin tilida "murojaat" degan ma'noni anglatadi. Appellatsiya – sud ishlarini yuritishda fuqarolik, xo'jalik va jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudlarida chiqarilgan va qonuniy kuchga kirmagan qarorlar, hal qiluv qarorlari, ajrimlar va hukmlarni yuqori instansiya sudi tomonidan qayta ko'rish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi instansiya hisoblanadi.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Ўзбекистон овози. 2016. 8 декабрь.

<sup>2</sup> "Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексини тасдиқлаш ҳакида" Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 22 январдаги ЎРҚ-460-сон Конуни // "Халқ сўзи" газетаси, 2018 йил 23 январда нашр этилган // 2018 йил 1 апреддан эътиборан кучга кирди.

<sup>3</sup> Ўзбекистон юридик энциклопедияси. Муаллифлар жамоаси. -Тошкент. Адолат. 2010 йил.

Professor Sh.Sh.Shoraxmetov appellatsiya institutining ahamiyati haqida gapirib, mustaqillik tufayli inson manfaatlari, ularning qonuniy huquqlarini sud tartibida himoya qilishni yanada kengaytirish maqsadida fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish bosqichi sifatida amaldagi protsessual qonunchilikda appellatsiya instituti joriy etildi. Mustaqillik tufayli respublikamizda ilg‘or xorijiy davlatlarning huquqshunoslik sohasidagi yutuqlarini o‘rganish va ularni tahlil qilish tufayli, Xalqaro andozalarga to‘g‘ri keladigan, bizning urf-odatlarimizga, sharoitimizga, an’analarimizga xos va mos bo‘lgan bir qator qonun va huquqiy me’yorlar hayotimizga tatbiq etildi va etilmoqda. Shular jumlasiga fuqarolik protsessual qonunchiligidagi appellatsiya institutining kiritilganligidir, deya ta’kidlagan.<sup>1</sup>

Appellatsiya birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori (ajrimi) ustidan shikoyat qilish va yo‘l qo‘yilgan xatolarni tekshirish usuli darajasidan fuqarolik protsessual huquqi sohasining mustaqil institutiga aylanib ulgurgan.<sup>2</sup>

Yuridik fanlar nomzodi R.A.Xusainovaning fikricha “appellatsiya – birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori (ajrimi) qonuniy, asosli va adolatli ekanligini aniqlash, mavjud sud xatolarini bartaraf etish maqsadida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan yuridik va faktik holatlarni tekshirish orqali ishni mazmunan qayta ko‘rish uchun appellatsiya instansiyasi sudida qo‘zg‘atilgan ish yuritishning tartibini belgilovchi hamda fuqarolik protsessual huquqining fuqarolik ishini to‘g‘ri hal etish va birinchi instansiya sudining faoliyatini nazorat qilishni ta’minalashga qaratilgan normalari tizimidan iboratdir”<sup>3</sup>.

Ta’kidlash kerakki, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv prokuror bergen protest asosida qo‘zg‘atilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, amaldagi qonunchilik prokuror tomonidan protest keltirish jarayonida bir qator imtiyozlarni nazarda tutadi. Bular avvalo prokuror protesti uchun

---

<sup>1</sup> Шораҳметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шархлар. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2007. 743 бет.



<sup>2</sup> Хусайнова Р.А. Фуқаролик ишларини апелляция тартибида судда кўриш муаммолари // Юрид. фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: 2011. -4 б.

<sup>3</sup> Интернет манзил WWW <http://tsil.uz:81/lib/Avtoreferatlar> Хусайнова Р.А. Фуқаролик ишларини апелляция тартибида судда кўриш муаммолари. Диссертация автореферати. Тошкент 2011 йил.

davlat bojining undirilmasligidir. Qolaversa, protest ishning qanday hal etilishidan moddiy manfaatdor bo‘lman, zimmasiga qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish kabi muhim vazifalar yuklatilgan prokurorlar tomonidan keltirilishi sud qarorlarining keljakda qonuniyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 373-moddasiga ko‘ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar sud hujjatining qonuniy, asosli vaadolatli ekanligini tekshirish haqidagi shikoyat (ariza) bilan qonunda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Prokuror muayyan ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o‘z vakolati doirasida protest keltirishga haqli.



Sudning mazmunan to‘g‘ri bo‘lgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori faqat rasmiy asoslarga ko‘ra bekor qilinishi mumkin emas.

Shu o‘rinda moddiy huquq va protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash masalasiga to‘htalib o‘tsak.

<b>Quyidagi hollarda moddiy huquq normalari buzilgan yoki noto‘g‘ri qo‘llanilgan deb hisoblanadi, agar:</b>	<b>Protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina hal qiluv qarorining, ajrimning yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo‘ladi, agar:</b>
1) sud qo‘llanilishi lozim bo‘lgan qonun yoki boshqa qonun hujjatini qo‘llamagan bo‘lsa;	1) ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda yoki taalluqlilik to‘g‘risidagi qoidalar buzilgan holda ko‘rilgan bo‘lsa;
2) sud qo‘llanilmasligi lozim bo‘lgan qonun yoki boshqa qonun hujjatini qo‘llagan bo‘lsa;	2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqtি va joyi to‘g‘risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa;
3) sud qonun yoki boshqa qonun hujjatini noto‘g‘ri talqin qilgan bo‘lsa.	3) ish ko‘rilayotganida ish yuritilayotgan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;
	4) sud ishida ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatları to‘g‘risidagi masalani hal qilgan bo‘lsa;
	5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

	6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudya tomonidan imzolanmagan yoki ishni ko‘rgan va hal qilgan sudyalardan (sudyadan) boshqa sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo‘lsa;
	7) ishda sud majlisi bayonnomasi mavjud bo‘lmasa yoki u imzolanmagan bo‘lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror bekor qilinishi mumkin.

Sud hujjatlari appellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyasida ko‘rilganida ushbu instansiya sudlarining ajrimi yoki qarorida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- 1) ajrim yoki qaror chiqarilgan sana va joy;
- 2) ajrim yoki qaror chiqargan sudning nomi va tarkibi;
- 3) taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning ishtiroki to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- 4) ish kimning shikoyati yoki protesti bo‘yicha ko‘rib chiqilganligi;
- 5) shikoyat qilingan yoki protest keltirilgan sud hujjatining nomi va uning qisqacha mazmuni;
- 6) shikoyatda yoki protestda bayon etilgan vajlar, taqdim etilgan materiallarning qisqacha mazmuni, ishni ko‘rishda ishtirok etgan shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning fikri;
- 7) appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudi xulosaga kelishiga asos bo‘lgan sabablar hamda sud amal qilgan moddiy va protsessual huquq normalari;
- 8) qarorning xulosa qismi.

Hal qiluv qarori, ajrim, qaror bekor qilingan va ish yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborilgan taqdirda, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudi ishni yangidan ko‘rganda qaysi holatlar aniqlanishi zarurligini, qaysi dalillar talab qilib olinishi

kerakligini, shuningdek ish topshirilayotgan sud boshqa qanday harakatlarni bajarishi lozimligini ko'rsatishi shart.

Sud shikoyatni (protestni) rad qilsa, qaysi sabablarga ko'ra shikoyat yoki protestdagi vajlarni noto'g'ri deb yoki qarorni bekor qilish, o'zgartirish yoxud yangi hal qiluv qarori chiqarish uchun asos bo'lmaydi deb topganligini ham o'z ajrimida yoki qarorida ko'rsatishi shart (FPKning 379-moddasi).

Apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining ajrimi (qarori) chiqarilishi bilanoq darhol qonuniy kuchga kiradi.

Taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra, ularga appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudi ajrimining yoki qarorining ko'chirma nusxasi imzo qo'ydirib topshiriladi yoki pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Sud majlisiga kelmagan taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudi ajrimining yoki qarorining ko'chirma nusxasi ajrim yoki qaror chiqarilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi (FPKning 382-moddasi).

## **1.2. Apellatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi va muddati**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksining 4-moddasiga ko'ra, appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudlariga murojaat etilganda – shikoyat (protest) shaklida amalga oshiriladi. Demak, appellatsiya tartibida shikoyat (protest) shaklida murojaat etiladi. Appellatsiya shikoyati (protesti) keltirish **ob'ekti qonuniy kuchga kirmagan** sud hal qiluv qaroridir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 30 noyabrdagi "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini appellatsiya va kassatsiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi 33-sod qarorining 2-bandida ko'rsatilishicha O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 383, 403-moddalariga muvofiq appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish:

**a) da'vo tartibida yuritiladigan ishlar bo'yicha:**

da'vogar, javobgar, uchinchi shaxs, ularning vakillari, davlat boshqaruvi organining shikoyati va prokurorning protesti bo'yicha;

**b) alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha:**

arizachi, manfaatdor shaxs, ularning vakillari shikoyati va prokurorning protesti bo'yicha qo'zg'atiladi.

Apellatsiya, kassatsiya tartibida ish yuritish, shuningdek FPK 373-moddasining birinchi qismiga muvofiq sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'lgan ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxsning shikoyati bo'yicha ham qo'zg'atilishi mumkin. Ushbu shaxs sud hujjatida ko'rsatilmagan hollarda ham, uning ustidan shikoyat qilish huquqidan foydalanadi.

Sud hujjati ustidan appellatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat qilish huquqiga, shuningdek taraflar, uchinchi shaxslar yoki qonuniy vakilning huquqiy vorislari ham ega.

Shaxsning birinchi instansiya sudida qatnashayotgan vakili, shu jumladan advokat, agar bunday huquq vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan bo'lsagina, sud hujjati ustidan appellatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat qilishga haqli (FPK 69-moddasining ikkinchi qismi).

**Esda saqlang! Sudning hal qiluv qarori ustidan ushbu qaror chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida appellatsiya tartibida shikoyat (protest) keltiriladi. Appellatsiya, shikoyati (protesti) berish muddati o'tishining boshlanishi, tegishlicha hal qiluv qarori qabul qilingan yoki qonuniy kuchga kirgan kunning ertasidan hisoblanadi (FPK 152-moddasi).**

Ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan shikoyat (protest) shikoyat (protest) bergen shaxsga qaytariladi. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining

155-moddasi qoidalari asosida hal etiladi. Ya’ni, appellatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini tiklash yoki rad qilish haqida sud ajrim chiqaradi.

O’tkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etish to‘g‘risidagi ajrim ustidan Fuqarolik protsessual kodeksining 155-moddasining oltinchi qismiga ko‘ra, xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sudning o’tkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan shikoyat (protest) berilganda, appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi shikoyatni (protestni) asosli deb topganda, birinchi instansiya sudining ajrimini bekor qilib, o’tkazib yuborilgan muddatni tiklaydi va shikoyatni (protestni) FPK 386, 406-moddalari talablariga muvofiqligini tekshirish hamda FPK 389, 409-moddalarida ko‘rsatilgan harakatlarni bajarish uchun ishni birinchi instansiya sudiga yuboradi.

Apellatsiya shikoyati (protesti) appellatsiya instansiysi sudi nomiga yo‘llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni chiqargan sudga beriladi.

Apellatsiya shikoyati (protesti) sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko‘chirma nusxalari bilan birga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan appellatsiya shikoyati (protesti) mustasno.

Zarur hollarda, sudya appellatsiya shikoyati bergen shaxsning yoki appellatsiya protesti keltirgan prokuorning zimmasiga appellatsiya shikoyatiga yoxud protestiga ilova qilingan yozma materiallarning ko‘chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin.

Har bir shikoyat (protest) kelib tushgan sanasi ko‘rsatilgan holda ro‘yxatga olinishi lozim.

**Yodda tuting!** O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 30 noyabrdagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini appellatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi 33-sod qarorining 6-bandida ko‘rsatilishicha, quyidagilar ustidan appellatsiya tartibida shikoyat (protest) berilmaydi:

- 1) sud buyrug‘i;

2) qonunda shikoyat qilinishi nazarda tutilmagan yoki ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qilmaydigan, shuningdek ish muhokamasini keyinga qoldirish haqida, shu jumladan, nikohdan ajratish haqidagi ishlar bo'yicha erxotinga yarashish uchun muddat tayinlanishi munosabati bilan chiqarilgan birinchi instansiya sudining ajrimlari.

### **Apellatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:**

- 1) shikoyat (protest) yo'llanayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);
- 3) shikoyat qilinayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori, qaror va ushbu sud hujjatlarni chiqargan sud;
- 4) hal qiluv qarorining, ajrimning, qarorning noto`g`riliqi nimadan iborat ekanligi;
- 5) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi;
- 6) rўйхати shikoyat (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ro`yxati;

Apellatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Apellatsiya protestini mazkur ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat'i nazar, prokuror yoki uning o'rribosari keltiradi va imzolaydi.

Apellatsiya shikoyatida (protestida) shikoyatni (protestni) bergan shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

#### **Apellatsiya shikoyatiga quyidagilar ilova qilinadi:**

davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

apellatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan taqdirda — uni imzolashga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Sudning arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan appellatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan ariza va unga qo‘sib berilgan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

Apellatsiya shikoyatini (protestini) berish paytida Fuqarolik protsessual kodeksining 385-386-moddalarining talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa yoki davlat bojini to‘lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat berish uchun bojni, shuningdek pochta xarajatlarini to‘lamagan bo‘lsa, appellatsiya shikoyati (protesti) harakatsiz qoldiriladi.

Apellatsiya shikoyatini (protestini) harakatsiz qoldirish to‘g‘risida sudya bu shikoyatning (protestning) harakatsiz qoldirilishiga asos bo‘lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko‘rsatgan holda ajrim chiqaradi. Ajrim appellatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki unga pochta orqali yoxud axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida yuboriladi.


Agar shikoyat (protest) bergan shaxs ajrimda ko‘rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda bartaraf etsa, shikoyat (protest) dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat (protest) berilmagan hisoblanib, shikoyatni (protestni) bergan shaxsga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi. Shikoyat (protest) uni bergan shaxsga ajrim bilan birga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki unga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Mazkur holat yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 30 noyabrdagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini appellatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi 33-sod qarorining 7-bandida tushuntirish berilishicha, ko‘rsatilgan muddat shikoyat (protest)ning kamchiliklarini bartaraf etishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda tayinlanishi lozim.

Ajrimda ko‘rsatilgan kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilganda, shikoyat (protest) dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi, aks holda, shikoyat (protest) berilmagan hisoblanib, qaytariladi va bu haqda sudya tomonidan ajrim chiqariladi.

Qonun taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga hal qiluv qarori nusxasini topshirish faktini appellatsiya, cassatsiya shikoyati (protest) berish huquqini amalga oshirish muddati bilan bog‘lamasligi sababli, hal qiluv qarorining nusxasini olgandan so‘ng «**asosiy**» shikoyat (protest) taqdim etilishini ko‘rsatib, «**dastlabki**» appellatsiya shikoyati (protesti) berilishi qonunda nazarda tutilmagan.

**Birinchi instansiya sudining appellatsiya shikoyatini (protestini) olganidan keyingi harakatlari quyidagilar:**



Hal qiluv qarori, ajrim, qaror ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) uchun belgilangan muddat ichida hech kim ishni suddan talab qilib olishi mumkin emas. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va kelib tushgan shikoyat (protest) bilan tanishishga haqli.

Shikoyat qilish (protest keltirish) uchun o‘tkazib yuborilgan muddat tiklangan taqdirda birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining ijrosini to‘xtatishga haqli bo‘lib, bu haqda ajrim chiqariladi.

Hal qiluv qarorining ijrosi appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan shikoyatni (protestni) ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ajrim qabul qilinguniga qadar bo‘lgan muddatga to‘xtatiladi.

**Yodda tuting!** Sud protsessida appellatsiya shikoyati bergen taraf tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishi mumkin. Mazkur shaxslar keltirilgan appellatsiya protestiga ham qo'shilishi mumkin.

Shikoyatga (protestga) qo'shilish haqida ariza berilganda **davlat boji undirilmaydi**.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat (protest) yuzasidan sudga tushuntirishlar (e'tirozlar) ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib, taqdim etishga haqli.

Tushuntirishlar (e'tirozlar) ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga qarab mutanosib miqdordagi ko'chirma nusxalari bilan birga sudga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan tushuntirishlar (e'tirozlar) mustasno. Sud tushuntirishlarning (e'tirozlarning) ko'chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi (yuboradi) (FPKning 391-moddasi).

### **1.3. Appellatsiya instansiyasi sudida ish ko'rish tartibi va muddatlari**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 392-moddasiga ko'ra, appellatsiya instansiyasi sudi ishni shikoyat (protest) bilan birga olganidan keyin zarur hollarda:

ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat (protest) yuzasidan tushuntirishlar (e'tirozlar) taqdim etishni taklif qiladi. Tushuntirishlar (e'tirozlar), shuningdek ularga ilova qilingan hujjatlar ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan tushuntirishlar (e'tirozlar), shuningdek ularga ilova qilingan hujjatlar mustasno. Sud tushuntirishlarning (e'tirozlarning) ko'chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi (yuboradi);

ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan dalillarni talab qilib oladi.

Apellatsiya shikoyati bergen shaxs appellatsiya instansiysi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar shikoyatni to‘ldirishga, o‘zgartirishga yoki undan voz kechishga, protest keltirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror esa, protestni to‘ldirishga, o‘zgartirishga yoki qaytarib olishga haqli.

Shikoyatdan voz kechish (protestni qaytarib olish)ni qabul qilish masalasi appellatsiya, cassatsiya instansiysi sudi tomonidan shikoyat (protest)ni ko‘rish uchun tayinlangan sud majlisida hal qilinadi va bunda shaxsning shikoyatdan voz kechish (protestni qaytarib olish) vakolati tekshirilishi zarur.

FPK 69-moddasi mazmuniga ko‘ra, ishonchnomada vakilga berilgan birinchi instansiya sudi sud hujjatiga nisbatan shikoyat keltirish huquqi, agar ishonchnomada boshqa holat maxsus ko‘rsatilmagan bo‘lsa, shikoyatdan voz kechish huquqini bermaydi.

Agar shikoyatdan voz kechish qonunga zid bo‘lmasa yoki boshqa birovning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasa, appellatsiya, cassatsiya instansiysi sudi uni qabul qilishga haqli.

Agar tegishli sud hujjatiga nisbatan boshqa shaxslar tomonidan shikoyat berilmagan bo‘lsa, sud shikoyatdan voz kechish qabul qilinganligi to‘g‘risida, shuningdek protest qaytarib olinganda ajrim chiqaradi va appellatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Shikoyatga qo‘shilish haqidagi yozma ariza mustaqil shikoyat sifatida ko‘rib chiqilishi sababli, agar sud protsessida shikoyat bergen taraf tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar yoki uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo‘shilgan taqdirda, shikoyatdan voz kechishni qabul qilish appellatsiya tartibida ish yuritishni tugatishga olib kelmaydi. Shuni e’tiborga olish lozimki, ko‘rsatilgan shaxslar berilgan protestga ham qo‘shilishlari mumkin.

Apellatsiya shikoyatidan voz kechilganligi (protest qaytarib olinganligi) munosabati bilan appellatsiya tartibida ish yuritish tugatilganda, sud hujjati qonuniy kuchga kiradi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 30 ноябрдаги “Судлар томонидан фуқаролик ишларини апелляция ва кассация тартибида кўриш амалиёти тўғрисида”ги 33-сон карорининг 9-банди.

Apellatsiya shikoyati (protesti) berilgandan keyin da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida appellatsiya instansiyasi sudiga taqdim etilishi kerak.

Agar ish muhokamasi davomida da'vogar arz qilingan talablaridan voz kechsa, javobgar bildirilgan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsa, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi. Mana shunday holatda Fuqarolik protsessual kodeksining 278-moddasiga ko'ra, taraflarning, uchinchi shaxslarning o'zлari qo'ygan talablardan butunlay yoki qisman voz kechganligi haqidagi, qo'yilgan talablarni tan olishi, ishni kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv bilan tamomlash to'g'risidagi arizalari bayonnomaga kiritiladi. Bayonnomada sud majlisi tamom bo'lganidan yoki alohida protsessual harakat amalga oshirilganidan keyin kechi bilan uch kunda raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi tomonidan imzolanishi kerak. Kiritilgan barcha o'zgarishlar, tuzatishlar, qo'shimchalar bayonnomada izohlanishi kerak.

Sud da'vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da'vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi. Ya'ni, Fuqarolik protsessual kodeksining 126-moddasiga ko'ra, ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan sudga ikkinchi marta murojaat qilishga yo'l qo'yilmasligini tushuntirishi lozim.

Apellatsiya instansiyasi sudi da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilganida yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlaganida chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi.

Agar da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoxud boshqa birovning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga xilof bo'lsa, sud voz kechishni qabul qilmaydi yoxud tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi va ishni appellatsiya tartibida ko'rib chiqadi.

## Ishni appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rish muddatlari

<p><b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi:</b></p> <p>Apellatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran <b>bir oydan kechiktirmay</b> ko‘rishi kerak. Ish o‘ta murakkab bo‘lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko‘pi bilan yana <b>o‘n kunga</b> uzaytirishi mumkin.</p>	<p><b>O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi:</b></p> <p>Apellatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran <b>bir oydan kechiktirmay</b> ko‘rib chiqishi kerak. Alohida hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o‘rinbosari bu muddatni ko‘pi bilan yana <b>bir oyga</b> uzaytirishi mumkin</p>
<p>Ishni appellatsiya instansiyasida ko‘rish muddati uzaytirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish ko‘riladigan kun to‘g‘risida oldindan xabar qilinishi kerak.</p>	

Qonunga ko‘ra ish appellatsiya tartibida ko‘rilayotganda quyidagilar aniqlanishi lozim:

birinchi instansiya sudi ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘liq tekshirgan-tekshirmaganligi;

sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar isbotlangan-isbotlanmaganligi;

sudning hal qiluv qarorida, ajrimida, qarorida bayon etilgan xulosalar ish holatlariga muvofiqligi;

moddiy va (yoki) protsessual huquq normalari buzilgan-buzilmaganligi, ular to‘g‘ri qo‘llanilgan-qo‘llanilmaganligi;

birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan sud hujjatlari qonun talablariga muvofiqligi.

Apellatsiya instansiyasi sudi FPK 396-moddasiga muvofiq birinchi instansiya sudi sud hujjatining qonuniyligi va asosliligini **to‘liq hajmda** tekshiradi.

Shikoyat (protest) vajlaridan qat’i nazar, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sud hujjatini to‘liq hajmda tekshirish deganda, birinchi instansiya sudi tomonidan ishning haqiqiy holatlari aniqlaganligini, moddiy va protsessual normalari to‘g‘ri qo‘llanilganligini tekshirishni tushunmoq lozim. Shikoyat (protest) vajlaridan qat’i nazar, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo‘yicha ko‘rishga o‘tish, ish bo‘yicha ish yuritishni tugatish yoki arizani ko‘rmasdan qoldirishga asoslar bor yoki yo‘qligini aniqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining FPK 397-moddasiga ko‘ra, appellatsiya instansiyasi sudida ishning ko‘rilishi kollegial tarzda, uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘rib chiqiladi. Ish yuritish birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Apellatsiya instansiyasi sudining majlisida raislik qiluvchi ushbu Kodeksning 211 va 212-moddalariga amal qilgan holda, sud majlisida tegishli tartibni ta’minalashga doir zarur choralarmi ko‘radi.

Raislik qiluvchi sud majlisini ochadi va kimning shikoyati (protesti) bo‘yicha hamda qaysi sudning hal qiluv qarori ustidan qanday ish ko‘rilishini e’lon qiladi. Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qaysi biri kelmaganligini, kelmaganlik sabablari to‘g‘risida qanday ma’lumotlar borligini aniqlaydi, sudga kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek mansabdor shaxslarning va vakillarning vakolatlarini tekshiradi.

Raislik qiluvchi sud tarkibini e’lon qiladi, sud majlisining kotibi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotganligini e’lon qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilishga doir huquqlarini tushuntiradi.

Arz qilingan rad qilishlar FPKning 4-bobida belgilangan tartibda hal etiladi. Ya’ni, FPKning 21-moddasiga ko‘ra, quyidagi hollarda sudya ishni ko‘rishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u:

- 1) shu ish ilgari ko‘rilganida sudya sifatida ishtirok etgan bo‘lsa va FPK talablariga muvofiq ishni ko‘rishda takror ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmasa;
- 2) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lsa yoxud uning xolisligi va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa;
- 3) shu ish ilgari ko‘rilganida hakamlik sudining sudyasi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisining kotibi, guvoh va vakil sifatida ishtirok etgan bo‘lsa;
- 4) taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qarindoshi bo‘lsa;
- 5) ishni ko‘rayotgan hay’at tarkibiga kiruvchi sudyaning qarindoshi bo‘lsa.

Sud hay’atining a’zosi bo‘lgan sudyani rad qilish hay’at a’zolari bo‘lgan qolgan sudyalar tomonidan ushbu sudya yo‘qligida hal etiladi. Rad qilishni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni teng bo‘lib qolganda, sudya rad qilingan hisoblanadi.

Ish hay’atda ko‘rilayotganda ikki sudyani yoki sudning butun tarkibini rad qilish arz qilingan taqdirda, rad qilish masalasi sudning shu tarkibi to‘g‘risida ko‘pchilik ovoz bilan hal qilinadi.

Rad qilish masalasini hal etish uchun sudya (sud) alohida xonaga (maslahatxonaga) kiradi va rad qilishni qabul qilish yoki qabul qilmaslik to‘g‘risida ajrim chiqaradi (FPkning 24–moddasi).

Ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudida, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat, Toshkent shahar sudida ko‘rilayotganida sudya yoki sudning butun tarkibi rad qilingan taqdirda, ish shu sudning o‘zida, lekin boshqa sud tarkibida ko‘riladi.

Agar Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudida, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudida ushbu Kodeksning 21-moddasida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra rad qilish

qanoatlantirilganidan keyin shu ishni ko‘rish uchun sudning yangi tarkibini tuzish imkoni bo‘lmasa, ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga o‘tkazilishi kerak. Bunday holda ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida ko‘riladi yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining farmoyishiga binoan boshqa tegishli sudga ko‘rish uchun yuboriladi(FPkning 25–moddasi).

**Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi.**

Ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud bo‘lмаган ishda ishtirok etuvchi shaxslarning biror-biri sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi.

Ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud majlisiga kelmaganligi ishning muhokamasiga to‘sinqlik qilmaydi. Biroq sud bunday hollarda ham sudga kelmaganlik sabablarini uzrli deb topib, ishning muhokamasini keyinga qoldirishga haqli.

Prokurorning yoki advokatning sudga uzrli sabablarsiz kelmaganligi to‘g‘risida sud xususiy ajrim chiqarib, bu haqda tegishli yuqori turuvchi prokurorga yoki O‘zbekiston Respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga xabar beradi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning appellatsiya instansiyasida ishning muhokamasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar bo‘yicha iltimosnomalari va arizalari ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning fikrlari eshitilgandan keyin sud tomonidan hal etiladi.

**Appellatsiya instansiyasi sudida ishni ko‘rish raislik qiluvchining yoki sudyalardan birining ma’ruzasi bilan boshlanadi.**

Ma’ruzachi ishning holatlarini, birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining mazmunini, appellatsiya shikoyatida (protestida) keltirilgan vajlarni va ular yuzasidan berilgan tushuntirishlarni (e’tirozlarini), yangi dalillarning mazmunini, shuningdek

sud hujjatining qonuniyligi, asosliligi vaadolatlilagini tekshirish uchun sud ko‘rishi zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni bayon qiladi.

Sud raislik qiluvchining yoki sudyalardan birining ma’ruzasidan keyin sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitadi, bu shaxslar appellatsiya shikoyatida (protestida) ko‘rsatilmagan vajlarni keltirishga va qo‘shimcha materiallar taqdim etishga ham haqli.

### **Apellatsiya tartibida ish ko‘rish tartibi**

1. Dastlab appellatsiya shikoyati bergen shaxs va uning vakili yoki, agar ish protest bo‘yicha ko‘rilayotgan bo‘lsa, prokuror so‘zga chiqadi.
2. Hal qiluv qarori ustidan har ikkala taraf tomonidan shikoyat qilingan bo‘lsa, birinchi bo‘lib da’vogar so‘zga chiqadi.
3. Fuqarolik protsessual kodeksining **52-moddasida** nazarda tutilgan tartibda ishda ishtirok etuvchi davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning vakillari, shuningdek fuqarolar, agar ular sudning hujjati ustidan shikoyat qilmagan bo‘lsa, appellatsiya instansiyasi sudida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so‘zga chiqadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlaridan so‘ng prokuror sud hujjatining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi to‘g‘risida fikrini bayon etadi, bundan prokurorning protesti bo‘yicha qayta ko‘rilayotgan sud hujjatlari mustasno.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokuror fikri eshitilgandan so‘ng appellatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) kiradi.

Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi ish ko‘rilgandan so‘ng darhol chiqariladi.

Aloida hollarda, asoslantirilgan ajrimni tayyorlash besh kungacha bo‘lgan muddatga kechiktirilishi mumkin, biroq ajrimning xulosa qismini sud appellatsiya muhokamasi tamomlangan majlisning o‘zidayoq e’lon qilishi kerak.

Sudyalarning maslahatlashuvi, ajrim chiqarish va uni o‘qib eshittirish ushbu Kodeksda belgilangan tartibda amalga oshiriladi (FPKning 397-moddasi).


Apellatsiya instansiyasi sudi har qanday dalillarni, ular birinchi instansiya sudi muhokamasida bo‘lganligidan va yangidan taqdim etilganligidan qat’i nazar, tekshirishga haqli.

Apellatsiya instansiyasi sudi yangi taqdim qilingan dalillarni tekshirishni rad qilishni ajrimda assolantirishi lozim.

Apellatsiya instansiyasi sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ekspertiza o‘tkazish, dalillarni ta’minalash va talab qilib olish, guvohlarni so‘roq qilish haqidagi va boshqa iltimosnomalarini ular birinchi instansiya sudi tomonidan rad etilganligi sababligina, rad etishga haqli emas.

Sudlarning e’tibori birinchi instansiya sudida muhokama predmeti bo‘lmagan, shu jumladan, qarshi da’vo tariqasida keltirilgan yangi moddiy-huquqiy talablar, shuningdek tarafning da’vo muddatini qo‘llash haqida arz qilgan talabi appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan qabul qilinishi va ko‘riliishi mumkin emasligiga qaratilsin. Bu qoida appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo‘yicha ko‘rish chog‘ida ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan yoki xabardor qilinmagan javobgar tomonidan berilgan talablarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Apellatsiya instansiyasi sudi ish yuritishni Fuqarolik protsessual kodeksining **10-bobida** nazarda tutilgan tartibda to‘xtatib turadi.



Apellatsiya instansiya sudi birinchi instansiyasudining hal qiluv qarorini to`la hajmda tekshirishi shart. Agar hal qiluv qarorining bir qismiga nisbat va protest keltirilgan bo`lsa, shikoyat qilinmagan va protest keltirilmagan qism ham qonuniy kuchga kirmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 384-moddasiga ko‘ra, appellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘rib chiqadigan sudlar quyidagilar:

- 1
- 2
- 3

- 1) Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari - tegishli fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudining, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi - hududiy harbiy sudlarning va O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan appellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘rib chiqadi.

#### **1.4. Appellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari**

##### **Apellyatsiya instansiyasi sudining vakolatlari**

1) hal qiluv qarorini, qarorni o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmaslikka;

2) isjni yangidan ko‘rish uchun o‘tkazmasdan hal qiluv qarorini, qarorni o‘zgartirishga yoki hal qiluv qarorini, qarorni butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) hal qiluv qarorini, qarorni qisman yoki butunlay bekor qilishga hamda FPKning 122 va 124-moddalarida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra arizani ko‘rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni tugatishga haqli

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 377-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar aniqlanganda, appellatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo‘yicha ko‘radi. Ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari muvofiq ko‘rishga o‘tish haqida ajrim chiqarilib, unda ishda ishtirok etuvchi shaxslar bajarishi lozim bo‘lgan harakatlar va ularni bajarish muddatlari ko‘rsatiladi.

Sud xarajatlarini taqsimlash to‘g‘risidagi masala hal qilinmaganligi yoki noto‘g‘ri hal qilinganligi sudning hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi. Bunday holda, ajrimning xulosa qismida sud xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 138-141 moddalarida nazarda tutilgan tartibda taqsimlanishi ko‘rsatiladi.

### **1.5. Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish)**

Fuqarolik ishi bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimi ish mazmunan hal qilinmaydigan sud hujjati hisoblanadi (FPK 6-moddasining ettinchi qismi). Shu bilan birga, fuqarolik ishini ko‘rishda vujudga keladigan masalalar bo‘yicha ajrimlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri chiqarilishi, uni belgilangandek sud muhokamasiga tayyorlash, protsess ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish, qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori qabul qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 401-moddasiga ko‘ra, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan sud tomonidan ajrim topshirilgan yoki yuborilgan kundan e’tiboran **o‘n kun ichida** appellatsiya instansiyasi sudiga quyidagi hollarda sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilishi, prokuror esa protest keltirishi mumkin:

- 1) FPKda nazarda tutilgan hollarda;
- 2) sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to‘sinqilik qiladigan hollarda.

Birinchi instansiya sudining boshqa ajrimlari ustidan xususiy shikoyat (protest) berilmaydi, biroq bunday ajimlarga qarshi e'tirozlar appellatsiya shikoyatiga (protestiga) kiritilishi mumkin.

Xususiy shikoyatlar (protestlar) ushbu bobda belgilangan tartibda beriladi va ko'rib chiqiladi.

Sudning hal qiluv qaroridan ajratilgan holda appellatsiya yoxud kassatsiya yoki nazorat tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin bo'lgan ajimlarni, sudning hal qiluv qarori bilan birga shikoyat qilinadigan, xususiy shikoyat yoki protest berilmaydigan, lekin e'tirozlar appellatsiya yoxud kassatsiya yoki nazorat tartibidagi shikoyat (protest)ga keltirilishi mumkin bo'lgan ajimlardan farqlash lozim.

Qonunga muvofiq (**FPK 400, 420, 422-moddalari**), birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan, agar bu qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan bo‘lsa yoki sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to‘sinqinlik qilgan hollarda sudning hal qiluv qaroridan alohida appellatsiya yoxud kassatsiya yoki nazorat tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019 yil 25 oktyabrdagi “Fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to‘g‘risida”gi 19-son qarorining 15-16 bandlarida tushuntirish berilishicha, sudlarning quyidagi ajrimlari ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi yoki berilmasligi mumkin. Ular quyidagilar:

<b>Xususiy shikoyat (xususiy protest) beriladigan ajimlar:</b>	<b>Xususiy shikoyat (xususiy protest) berilmaydigan ajimlar:</b>
arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risida;  arizani qaytarish to‘g‘risida;  ish yuritishni to‘xtatib turish to‘g‘risida;  majburiy keltirish to‘g‘risida;	arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish to‘g‘risida;  ishni sud muhokamasiga tayyorlash to‘g‘risida;  ishni sud muhokamasiga tayinlash to‘g‘risida;

<p>sud jarimasini solish to‘g‘risida;</p> <p>jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>ishni bir suddan boshqa sudga o‘tkazish to‘g‘risida;</p> <p>ish yuritishni tugatish to‘g‘risida;</p> <p>o‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirish yoki tiklashni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolar va ochiq arifmetik xatolarni tuzatish to‘g‘risida;</p> <p>qo‘sishimcha hal qiluv qarori qabul qilishni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorini tushuntirish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorini darhol ijro etish masalalari bo‘yicha;</p> <p>hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish va uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishi, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha;</p> <p>ijro varaqasining yoki sud buyrug‘ining dublikatini berish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta</p>	<p>bir necha ishlarni birlashtirish va bir necha talablarni ajratish to‘g‘risida;</p> <p>ishni yopiq sud majlisida ko‘rish to‘g‘risida;</p> <p>dalillarni ta’minlash to‘g‘risida;</p> <p>sud topshirig‘i to‘g‘risida;</p> <p>javobgarni (qarzdorni) qidirish to‘g‘risida;</p> <p>ishga daxldor bo‘lmagan javobgarni almashtirish to‘g‘risida;</p> <p>huquqiy vorislar, uchinchi shaxslar va vakillarning protsessga kirishi to‘g‘risida;</p> <p>rad qilishni qabul qilish yoki rad qilish to‘g‘risida;</p> <p>ishni mazmunan ko‘rishni tiklash to‘g‘risida;</p> <p>ishni sirdan ish yuritish tartibida ko‘rish to‘g‘risida;</p> <p>sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi yoxud sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>ashyoviy dalillarni saqlash va ularni qaytarish to‘g‘risida;</p> <p>jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirish to‘g‘risida.</p>
--	---

ko‘rish haqidagi arizani qanoatlantirish yoki rad etish to‘g‘risida;  
xususiy ajrim (qaror);  
dalillarni ta’minalashni rad etish to‘g‘risida;  
da’voni ta’minalash masalalari bo‘yicha;  
sud buyrug‘ini bekor qilishni rad etish to‘g‘risida;  
sud xarajatlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha;  
pellatsiya (kassatsiya) shikoyatini qaytarish to‘g‘risida;  
hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ish bo‘yicha;  
chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida;  
ijro varaqasini ijroga topshirishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklashni rad etish to‘g‘risida;  
ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish va tugatish haqidagi masalalar bo‘yicha;  
ijro ishini yuritishni tiklashni rad etish to‘g‘risidagi va boshqalar.

Sudlar shuni nazarda tutishi lozimki, sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilinayotgan ajrim, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirishi uchun nazarda tutilgan tartibda qonuniy kuchga kiradi.

Alovida shikoyat qilinmaydigan ajrimlar e'lon qilingandan so'ng darhol qonuniy kuchga kiradi.

Apellatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyatni (protestni) ko'rib chiqib:

- 1) ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmaslikka;
- 2) ajrimni bekor qilishga va ishni mazmunan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;
- 3) ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga haqli.

### **Mavzuga oid savollar va kazuslar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual qonunchiligida appellatsiya institutining vujudga kelishi haqida tushuncha bering?
2. Sud qarorlarini appellatsiya tartibida bekor qilish asoslarini izohlab bering?
3. Appellatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi berilgan sub'ektlar haqida ma'lumot bering?
4. Appellatsiya shikoyati mazmunini tushuntiring.
5. Appellatsiya instansiyasi sudi vakolatlarini tahlil qiling.
6. Appellatsiya instansiya sudida yuritiladigan protsessual hujjatlarni tahlil eting?
7. Moddiy va protsessual huquq normalarining buzilishini misollar yordamida tahlil eting?

### **1-kazus**

M.Sagatov shahar ijroiya qo'mitasi tomonidan 2010 yilda berilgan 325-sonli orderga asosan A.Fitrat ko'chasi, 2-uyning 13-xonadonida oila a'zolari bilan yashab kelgan. Ushbu orderda uydan foydalanuvchilar sifatida M.Sagatov, xotini M.Sagatova va qaynonasi M.Alimovalar ko'rsatilgan.

Nizoli xonodon shahar hokimining 2003 yil 5 fevraldag'i qarori bilan M.Sagatov nomiga xususiy lashtirilgan. 2009 yil M.Sagatov bilan M.Sagatov sud orqali nikohdan ajrashgan.

M.Sagatova va M.Alimovalar sudga da'vo bilan murojaat qilib,nizoli xonadonni ularning tasarrufida qoldirib, javobgar M.Sagatovga uydagi hissasini pul hisobida undirib berishni so'raganlar. Sud da'voni qanoatlantirgan.

Javobgar M.Sagatova tomonidan appellatsiya shikoyati keltirilgan. Appellatsiya instansiysi sudida javobgar tomonidan appellatsiya shikoyatidan voz kechildi. Shu sababli appellatsiya instnatsiyasi birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini bekor qilib ish yuritishni tugatdi.

- *Vaziyatga huquqiy baho bering?*
- *Apellatsiya instansiyasida shikoyatdan voz kechish va da'vodan voz kechish oqibatlarini tahlil eting.*

## **2-kazus**

M.Dustov 2015 yilda sudga da'vo bilan murojaat qilib X.Jalilov bilan nikoh davrida avtomashina sotib olganliklarini, X. Jalilov 2017 yil 21 avgustda uning rozilagini olmasdan avtomashinani akasi E.Jalilovga hadya qilganligini ko'rsatib, hadya shartnomasini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Sud M.Dustovning da'vosini rad qilish haqida, xususan da'vo muddatini uzrsiz sabablarga ko'ra o'tkazib yuborganligi haqida xulosaga kelgan.

Fuqaro M.Dustov esa appellatsiya instansiysi sudiga murojaat qilib, 2018 yil 19 aprelda taraflar sud qaror chiqargunicha da'vo muddatini qo'llash haqida ariza bilan murojaat qilmaganliklarini ta'kidlamoqda.

- *Vaziyatga huquqiy baho bering?*
- *Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi yozing?*

## **O'qish uchun adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –Toshkent, Adolat. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq

va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 4850-sonli Farmoni // "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2016 yil 31 oktabr, 43-son, 497-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil 13 fevral, 6-son, 70-modda.
4. Shoraxmetov Sh.Sh. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. –T.: TDYuI nashriyoti, 2007. 743 bet.
5. Fuqarolik protsessual huquqi. Maxsus qism. Mualliflar jamoasi. –Toshkent TDYuI. 2012. –B.310-313.
6. Xusainova R.A. Fuqarolik ishlarini appellatsiya tartibida sudda ko‘rish muammolari // Yurid. fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2011. -4 b.
7. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O‘quv qo‘llanma. To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. -Toshkent.: TDYU nashriyoti, 2018.
8. Xabibullayev D.Yu.Sudga shikoyat qilishning konstitutsiyaviy asoslari // J. TDYuI Axborotnomasi, 2012 yil №5. -B.117-119.
9. Fuqarolik ishlari bo‘yicha protsessual hujjatlar. Mualliflar jamoasi O‘quv uslubiy majmua. -Toshkent: TDYI, 2012. -228 b.
10. Fuqarolik ishlari bo‘yicha protsessual hujjatlar. Mualliflar jamoasi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, TDYuU 2016. -412 bet.
11. Yodgorov X.B. Fuqarolik ishlarini nazorat tartibida ko‘rish: sud amaliyoti va qonunchilik // Fuqarolik sud ishlarini yuritishga oid qonunchilikni takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. -Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”. 2015. – B. 74-75.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 30 noyabrdagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini appellatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi 33-son qarori.

13.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining

2019 yil 25 oktyabrdagi “Fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to‘g‘risida”gi 19-son qarori.

## **II BOB. KASSASIYA INSTANSIYASI SUDIDA ISH YURITISH**

### **2.1. Kassatsiya shikoyati (protesti) berish tartibi va muddati**

Sud hal qiluv qarorlari va ajrimlarini kassatsiya tartibida ko‘rish O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuniga muvofiq amaliyatga kiritilgan tartibi muqaddam amalda bo‘lgan sud ishlarini kassatsiya tartibida ko‘rishdan tubdan farq qiladi.

Endilikda fuqarolik ishlari bo‘yicha kassatsiya instansiyasining vazifasi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorlari, ajrimlari ustidan kelib tushgan shikoyatlarni qayta ko‘rish orqali birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan moddiy va protsessual qonun buzilishi holatini o‘z vaqtida tuzatishdan iborat bo‘lib qoldi.

Kassatsiya instansiyasi isloh etilishining huquqiy asoslari sifatida yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan “Kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish” deb nomlangan 45-bobni ko‘rsatish mumkin.

#### **Mazkur bobda:**

kassatsiya shikoyati (protesti) berish huquqi va muddati;

kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radigan sudlar;

kassatsiya shikoyatini (protestini) berish tartibi;

kassatsiya shikoyatining (protestining) mazmuni;

kassatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilinadigan hujjatlar;

kassatsiya shikoyatini (protestini) harakatsiz qoldirish;

birinchi instansiya sudining cassatsiya shikoyatini (protestini) olganidan keyingi harakatlari;

cassatsiya shikoyatiga (protestiga) qo'shilish;

cassatsiya shikoyati (protesti) yuzasidan tushuntirishlar berish (e'tirozlar bildirish);

cassatsiya instansiyasi sudining ishni shikoyat (protest) bilan birga olganidan keyingi harakatlari;

cassatsiya shikoyatini (protestini) to'ldirish, o'zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish;

da'vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi;

ishni cassatsiya instansiyasi sudida ko'rish muddatlari;

cassatsiya instansiyasi sudining ishni ko'rish doirasi;

ishni sud majlisida ko'rish tartibi;

cassatsiya instansiyasi sudida ish yuritishni to'xtatib turish;

cassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari;

birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan cassatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) huquqi;

birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat qilinganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni kuradigan cassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari bilan bog'liq masalalar o'z ifodasini topgan.

"Kassatsiya" so'zi lotincha so'z bo'lib, "sindirmoq", "bekor qilmoq" degan ma'nolarni anglatadi.<sup>1</sup>

Taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar sudning qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan u qonuniy kuchga kirgan

---

<sup>1</sup> Шорахметов III.III. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шархлар. –Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2010 й. – Б. 804.

kundan e'tiboran **olti oy ichida** kassatsiya tartibida shikoyat qilishi va prokuror protest keltirishi mumkin.

Ko'rsatilgan muddat o'tganidan so'ng berilgan shikoyat (protest) shikoyatni (protestni) bergan shaxsga qaytariladi. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi masala FPKning 155-moddasi qoidalari bo'yicha hal qilinadi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) kassatsiya instansiyasi sudi nomiga yo'llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni chiqargan sudga beriladi. Kassatsiya shikoyati (protesti) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nushalari bilan birga sudga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan kassatsiya shikoyati (protesti) mustasno. Zarur hollarda, suda kassatsiya shikoyati bergan shaxs yoki kassatsiya protesti keltirgan prokuror zimmasiga kassatsiya shikoyatiga yoxud protestiga ilova qilingan yozma materiallarning ko'chirma nuxxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin. Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilinganda yoki xodim bir ishdan boshqa ishga g'ayriqonuniy ravishda o'tkazilganida uni ilgarigi ishiga tiklash to'g'risida sud chiqargan hal qiluv qarori ustidan kassatsiya shikoyati ushbu qarorning ijrosiga doir hujjat ilova qilingan taqdirdagina qabul qilinadi (FPKning 405-moddasi).

Agar kassatsiya instansiyasi sudida javobgar vakilning xizmatidan voz kechgan bo'lib, ishda boshqa vakil qatnashmayotgan va boshqa shikoyatlar berilmagan taqdirda, kassatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) rad qilinib, kassatsiya sudida ish yuritish tugatiladi.<sup>1</sup>

#### **Fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida kassatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:**

- 1) shikoyat (protest) yo'llanayotgan kassatsiya instansiyasi sudining nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);

<sup>1</sup> Рыжаков А.П. Комментарий к Гражданскому процессуальному кодексу Российской Федерации. –М.: Норма, 2003. 514-б.

- |  |
|--|
| <p>3) shikoyat qilinayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori, ajrim, qaror va ushbu sud hujjatlarini chiqargan sud;</p> <p>4) hal qiluv qarorining, ajrimning, qarorning noto‘g‘riliqi nimadan iborat ekanligi;</p> <p>5) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi;</p> <p>6) shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ro‘yxati.</p> |
|--|

Kassatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi.

Kassatsiya protestini mazkur ishda ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar, prokuror yoki uning o‘ribbosari keltiradi va imzolaydi.

Kassatsiya shikoyatida (protestida) shikoyatni (protestni) bergen shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi mumkin.

Agar kassatsiya shikoyati (protesti) berish paytida FPKning 405, 406-moddalari talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa yoki davlat boji to‘lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat bergenlik uchun boj to‘lamagan bo‘lsa, kassatsiya shikoyati (protesti) harakatsiz qoldiriladi.

Shu o‘rinda, kassatsiya shikoyatiga (protestiga) ilova qilinadigan hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;
- kassatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan hollarda, uni imzolashga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Sudning arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan kassatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan ariza va unga qo‘shib berilgan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak (FPKning 407-moddasi).

Agar kassatsiya shikoyatini (protestini) berish paytida FPK 405 va 406-moddalarining talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa yoki davlat bojini

to‘lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat bergenlik uchun boj to‘lamagan bo‘lsa, kassatsiya shikoyati (protesti) harakatsiz qoldiriladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) harakatsiz qoldirish to‘g‘risida suda bu shikoyatning yoki protestning harakatsiz qoldiri-lishiga asos bo‘lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko‘rsatib ajrim chiqaradi.

Ajrim kassatsiya shikoyati (protesti) bergen shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki unga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Agar shikoyat (protest) bergen shaxs ajrimda ko‘rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda bartaraf etsa, shikoyat (protest) dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat (protest) berilmagan hisoblanib, shikoyat (protest) bergen shaxsga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi. Shikoyat (protest) uni bergen shaxsga ajrim bilan birga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki unga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi (FPKning 408-moddasi).

Hal qiluv qarori, ajrim, qaror ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) uchun belgilangan muddat ichida hech kim ishni suddan talab qilib olishi mumkin emas.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va kelib tushgan shikoyat (protest) bilan tanishishga haqli.

### **Birinchi instansiya sudining sudyasi yoki raisi kassatsiya shikoyatini (protestini) olgandan keyin:**

- 1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyatning (protestning) ko‘chirma nusxasini yuborishi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni kassatsiya instansiyasi sudida ishni ko‘rish vaqtini va joyi to‘g‘risida xabardor qilishi;
- 3) sud hujjatining ijrosini (agar u ijob etilmagan bo‘lsa) ish kassatsiya tartibida ko‘rilguniga qadar to‘xtatib qo‘yishi va bu xususda manfaatdor shaxslarni, tashkilotlarni xabardor qilishi;
- 4) kassatsiya shikoyati (protesti) kelib tushgan kundan e’tiboran yigirma kunlik muddat ichida ishni kelib tushgan shikoyat (protest) bilan birga kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va kelib tushgan shikoyat (protest) bilan tanishishga haqli (FPKning 409-moddasi).

Sud protsessida kassatsiya shikoyati bergen taraf tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishi mumkin. Mazkur shaxslar keltirilgan kassatsiya protestiga ham qo'shilishi mumkin. Shikoyatga (protestga) qo'shilish haqida ariza berilganda davlat boji undirilmaydi (FPKning 410-moddasi).

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat (protest) yuzasidan sudga tushuntirishlar (e'tirozlar) ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib, taqdim etishga haqli. Tushuntirishlar (e'tirozlar) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nushalari bilan birga sudga takdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan tushuntirishlar (e'tirozlar) mustasno. Tushuntirish-larning (e'tirozlarning) ko'chirma nushalarini sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi (FPKning 411-moddasi).

## **2.2. Kassatsiya instansiyasi sudida ish ko'rish tartibi va muddatlari**

Kassatsiya shikoyati bergen shaxs kassatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar uni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki undan voz kechishga haqli. Bunday voz kechish konunga zid bo'lmasa yoki boshqa birovning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga hilof bo'lsa, sud uni qabul qilishi mumkin.

Kassatsiya protesti keltirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror kassatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar protestni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki qaytarib olishga haqli. Shikoyatdan voz kechish qabul qilinganligi to'g'risida va protest qaytarib olingan takdirda, kassatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqaradi va unga ko'ra kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Kassatsiya shikoyatidan (protestidan) voz kechilganligi (uning chaqirib olinganligi) sababli u bo'yicha ish yurituvning tugatilishi, agar tegishli sud

qarori ustidan boshqa shaxslar tomonidan shikoyat qilingan bo‘lsa, boshqa kassatsiya shikoyatini (protestini) ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Kassatsiya shikoyati yoki protesti berilganidan keyin da’vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da’vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida kassatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi kerak. Agar ishning muhokamasi vaqtida da’vogar arz qilingan talablaridan voz kechsa, javobgar bildirilgan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsa, bu haqda sud majlisining bayonnomasiga yozib qo‘yiladi. Kassatsiya instansiyasi sudi da’vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da’vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibat-larini tushuntiradi. Da’vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi kabul qilingan yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlangan taqdirda kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi. Agar da’vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo‘lsa yoxud boshqa birovning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo‘lsa, sud voz kechishni qabul qilmaydi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlashni rad etadi hamda ishni kassatsiya tartibida ko‘radi (FPKning 414-moddasi).

Kassatsiya tartibida shikoyat berish, prokuror tomonidan protest keltirish uchun qonun bilan belgilangan muddatga rioya qilishlari shart. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 404-moddasiga ko‘ra, kassatsiya shikoyati (protesti) quyidagi sudlar tomonidan ko‘riladi:

**Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari**

- tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudining, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi**

- hududiy harbiy sudlarning va O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'radi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati**

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'radi.


<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekistan Respublikasi Harbiy sudi kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha kelib tushgan ishni:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha kelib tushgan ishni u kelib tushgan kundan e'tiboran:</b>
u kelib tushgan kundan e'tiboran <b>bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi kerak.</b>	<b>bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi kerak.</b> Alovida hollarda, O'zbekistan

<p>Ish o‘ta murakkab bo‘lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko‘pi bilan yana <b>yigirma kunga</b> uzaytirishi mumkin.</p>	<p>Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o‘rribbosari bu muddatni ko‘pi bilan yana <b>bir oyga uzaytirishi mumkin</b>. Ishni cassatsiya instansiyasi sudida ko‘rish muddati uzaytirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish ko‘riladigan kun to‘g‘risida oldindan xabardor qilinishi kerak.</p>
--	--

Sud ishni cassatsiya tartibida ko‘rayotganida sud hujjatlarining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatlilagini tekshiradi. Sud yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. Cassatsiya instansiyasi sudining sud muhokamasi FPKning 22-bobida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha, mazkur bobda belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda o‘tkaziladi.

### 2.3. Cassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

#### Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari:



O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 377-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar aniqlanganda, kassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo‘yicha ko‘radi. Ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari muvofiq ko‘rishga o‘tish haqida ajrim chiqarilib, unda ishda ishtirok etuvchi shaxslar bajarishi lozim bo‘lgan harakatlar va ularni bajarish muddatlari ko‘rsatiladi.

Sud xarajatlarini taqsimlash to‘g‘risidagi masala hal qilinmaganligi yoki noto‘g‘ri hal qilinganligi sudning hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi. Bunday holda, ajrimning xulosa qismida sud xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 138-141 moddalarida nazarda tutilgan tartibda taqsimlanishi ko‘rsatiladi.

## **2.4. Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish)**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 420-moddasiga ko‘ra, Birinchi instansiya sudining appellatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrimlari ustidan kassatsiya instansiyasi sudiga sud ajrimi qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran **olti oy** ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar sudning hal qiluv qaroridan alohida holda shikoyat qilishi hamda prokuror protest keltirishi mumkin.

Xususiy shikoyat (protest) ushbu bobda belgilangan tartibda beriladi va ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019 yil 25 oktyabrdagi “Fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to‘g‘risida”gi 19-son qaroriga ko‘ra, quyidagi sud ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat (protest) qilinishi yoki shikoyat (protest) qilinmasligi belgilab berilgan.

<b>Xususiy shikoyat (xususiy protest) beriladigan ajrimlar:</b>	<b>Xususiy shikoyat (xususiy protest) berilmaydigan ajrimlar:</b>
arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risida;	arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish to‘g‘risida;

<p>arizani qaytarish to‘g‘risida;</p> <p>ish yuritishni to‘xtatib turish to‘g‘risida;</p> <p>majburiy keltirish to‘g‘risida;</p> <p>sud jarimasini solish to‘g‘risida;</p> <p>jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>ishni bir suddan boshqa sudga o‘tkazish to‘g‘risida;</p> <p>ish yuritishni tugatish to‘g‘risida;</p> <p>o‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirish yoki tiklashni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolar va ochiq arifmetik xatolarni tuzatish to‘g‘risida;</p> <p>qo‘s Shimcha hal qiluv qarori qabul qilishni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorini tushuntirish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorini darhol ijro etish masalalari bo‘yicha;</p> <p>hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish va uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishi, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha;</p> <p>ijro varaqasining yoki sud</p>	<p>ishni sud muhokamasiga tayyorlash to‘g‘risida;</p> <p>ishni sud muhokamasiga tayinlash to‘g‘risida;</p> <p>bir necha ishlarni birlashtirish va bir necha talablarni ajratish to‘g‘risida;</p> <p>ishni yopiq sud majlisida ko‘rish to‘g‘risida;</p> <p>dalillarni ta’minlash to‘g‘risida;</p> <p>sud topshirig‘i to‘g‘risida;</p> <p>javobgarni (qarzdorni) qidirish to‘g‘risida;</p> <p>ishga daxldor bo‘lman javobgarni almashtirish to‘g‘risida;</p> <p>huquqiy vorislar, uchinchi shaxslar va vakillarning protsessga kirishi to‘g‘risida;</p> <p>rad qilishni qabul qilish yoki rad qilish to‘g‘risida;</p> <p>ishni mazmunan ko‘rishni tiklash to‘g‘risida;</p> <p>ishni sirdan ish yuritish tartibida ko‘rish to‘g‘risida;</p> <p>sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi yoxud sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>ashyoviy dalillarni saqlash va ularni qaytarish to‘g‘risida;</p> <p>jarimadan ozod qilish yoki uning</p>
---	---

<p>buyrug‘ining dublikatini berish to‘g‘risida;</p> <p>hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish haqidagi arizani qanoatlantirish yoki rad etish to‘g‘risida;</p> <p>xususiy ajrim (qaror);</p> <p>dalillarni ta’minalashni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>da’voni ta’minalash masalalari bo‘yicha;</p> <p>sud buyrug‘ini bekor qilishni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>sud xarajatlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha;</p> <p>kassatsiya shikoyatini qaytarish to‘g‘risida;</p> <p>hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ish bo‘yicha;</p> <p>chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida;</p> <p>ijro varaqasini ijroga topshirishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklashni rad etish to‘g‘risida;</p> <p>ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish va tugatish haqidagi masalalar bo‘yicha;</p> <p>ijro ishini yuritishni tiklashni rad etish to‘g‘risidagi va boshqalar.</p>	<p>miqdorini kamaytirish to‘g‘risida.</p>
--	---

Sudlar shuni nazarda tutishi lozimki, sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilinayotgan ajrim, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirishi uchun nazarda tutilgan tartibda qonuniy kuchga kiradi.

Alohida shikoyat qilinmaydigan ajrimlar e'lon qilingandan so'ng darhol qonuniy kuchga kiradi.

Kassatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyatni (protestni) ko'rib chiqib:

- 1) ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmaslikka;
- 2) ajrimni bekor qilishga va ishni mazmunan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;
- 3) ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga haqli.

### **Mavzuga oid savollar va kazuslar:**

1. Kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi berilgan sub'ektlar haqida ma'lumot bering?
2. Kassatsiya shikoyati berish tartibi va muddatini tushuntiring?
3. Kassatsiya shikoyati mazmunini tushuntiring.
4. Kassatsiya instansiyasi sudi vakolatlarini tahlil qiling.
5. Kassatsiya instansiya sudida yuritiladigan protsessual hujjatlarni tahlil eting?

### **1-kazus**

A.To'raqulova bir uyda yashash imkonи yo'qligi sababli o'g'li L.Boyoqovni uydan ko'chirishni so'ragan. Sud da'vo arizani qanoatlantirgan.

Javobgar sud hal qiluv qaroridan norozi bo'lib, kassatsiya instansiyasi sudiga shikoyat yozgan. Sud kassatsiya shikoyatini harakatsiz qoldirgan. Asos sifatida davlat boji to'lanmaganigini ko'rsatgan.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

## **2-kazus**

Da'vogar A.Ergashev javobgar Sergeli tuman hokimiysi va boshqalarga nisbatan hokim qarorini haqiqiy emas deb topish haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudining 2019 yil 27 maydagi hal qiluv qarori bilan da'vogar A.Ergashevning da'vo talablari qisman qanoatlantirilgan. Ushbu hal qiluv qaroridan javobgar D.Muminova norozi bo'lib, unga nisbatan kassatsiya tartibida shikoyat keltirgan. D.Muminova mazkur kassatsiya shikoyatini bir nusxada bergen. Birinchi instansiya sudi ajrim chiqarib kamchiliklar bo'lganligi sababli kassatsiya shikoyatini qaytarish to'g'risida ajrim chiqargan.

### ***Vaziyatga huquqiy baho bering?***

#### **O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –Toshkent, Adolat. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 4850-sonli Farmoni // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2016 yil 31 oktabr, 43-son, 497-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 13 fevral, 6-son, 70-modda.
4. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. –T.: TDYuI nashriyoti, 2007. 743 bet.
5. Shorahmetov SH.SH. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 539 b.
6. Fuqarolik protsessual huquqi. Maxsus qism. Mualliflar jamoasi. –Toshkent TDYuI. 2012. –B.310-313.
7. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar).

O‘quv qo‘llanma. To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. -Toshkent.: TDYU nashriyoti, 2018.

8. Fuqarolik ishlari bo‘yicha protsessual hujjatlar. Mualliflar jamoasi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, TDYuU 2016. -412 bet.
9. Yodgorov X.B. Fuqarolik ishlarini nazorat tartibida ko‘rish: sud amaliyoti va qonunchilik // Fuqarolik sud ishlarini yuritishga oid qonunchilikni takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. -Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”. 2015. – B. 74-75.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 30 noyabrdagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini appellatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi 33-son qarori.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019 yil 25 oktyabrdagi “Fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to‘g‘risida”gi 19-son qarori.

### **III BOB. NAZORAT INSTANSIYASI SUDIDA ISH YURITISH**

#### **3.1. Nazorat instansiyasi sudida ish yuritishning mohiyati va rivojlanishi**

2017 yilning 8 fevralida matbuotda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon bilan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”ning 81-bandida:

fuqarolik va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqishni takomillashtirish, biri-birini

takrorlovchi majburiyat va instansiyalarni qisqartish maqsadida fuqarolik ishi bo‘yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko‘rib chiqish muddatini 3 yildan 1 yilga qisqartirish;

viloyat miqyosidagi sudlar tomonidan jinoyat va fuqarolik ishlarini nazorat tartibida ko‘rib chiqish institutini tugatib, tegishli sud raislari va prokurorlarning nazorat tartibida protest keltirish bo‘yicha vakolatlarini bekor qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ishlarni nazorat tartibida ko‘rib chiqish bo‘yicha biri-birini takrorlovchi vakolatlarini bekor qilish; ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqadigan sudning ishni birinchi instansiya sudiga yoxud appellatsiya yoki cassatsiya instansiyasi sudiga yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborishga oid vakolatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish belgilangan edi.<sup>1</sup>

O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunining<sup>2</sup> qabul qilinishi (2017 yil 29 mart) munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining cassatsiya, nazorat tartibida ish yuritishga oid bir qator normalariga qo‘sishimchalar va o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, fuqarolik ishi bo‘yicha sud qarorlari ustidan cassatsiya shikoyati berish (protesti keltirish) muddati 1 yildan olti oyga, nazorat tartibida protest keltirish to‘g‘risida ariza berish muddati 3 yildan 1 yilga qisqartirildi. Bu esa fuqarolarga nizolarni qisqa muddatlarda hal etish, sudlarda yillab ovora bo‘lib yurishi oldini olish, o‘z navbatida sud qarorlarining barqarorligiga erishish, fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashga olib keldi. Shuningdek, viloyat

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ф-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017. 13 февраль, 6-сон, 70-модда.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 марта “Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли химоя қилиш кафолатларини таъминлашга доир кўшимча чора-тадбирлар қабул қилинганилиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатларига ўзгариш ва кўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-421-сон конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2017 й. 3-сон, 47-модда.

miqyosidagi sudlar tomonidan fuqarolik ishlarni nazorat tartibida ko‘rib chiqish instituti tugatilib, tegishli sud raislari va prokurorlarning nazorat tartibida protest keltirish vakolatlari bekor qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumini ishlarni nazorat tartibida ko‘rib chiqish bo‘yicha vakolati hamda nazorat tartibida ko‘rib chiquvchi instansiyalarning bir-birini takrorlovchi vakolatlari bekor qilindi.

2018 yil 22 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik pro-tsessual kodeksining 46-bobi “**Nazorat instansiyasi sudida ish yuritish**” deb nomlandi. Mazkur bobda:

nazorat tartibidagi shikoyatni (protestni) ko‘rish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazish to‘g‘risidagi ajrim;

sud hujjatlari ustidan nazorat tartibida shikoyat qilish ququqi; nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar; ishni nazorat tartibida ko‘radigan sud;

ishlarni talab qilib olish;

nazorat tartibida shikoyat (protest) berish tartibi va muddati;

nazorat tartibidagi shikoyatning (protestning) mazmuni;

nazorat tartibidagi shikoyatni qaytarish;

nazorat tartibidagi shikoyatni ko‘rish muddatlari;

nazorat tartibidagi shikoyat bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar;

sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi ajrim;

ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish; ishni nazorat tartibida ko‘rish tartibi va muddatlari;

nazorat shikoyatini (protestini) to‘ldirish, o‘zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni chaqirib olish;

nazorat instansiyasi sudining vakolatlari bilan ishni ko‘radigan appellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari bilan bog‘liq qator masalalar o‘z ifodasini topdi.

Bugungi kunda fuqarolik ishi appellatsiya yoki kassatsiya instansiyasida ko‘rilgach yoxud birinchi instansiya sudi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach,

bir yil, ya’ni cassatsiya shikoyati berish muddati o’tgach, ishdagi taraflar tomonidan taalluqliligi bo‘yicha dastlab viloyat sudi raislari yoki viloyat prokurorlariga, keyinchalik Oliy sud raisi va o‘rinbosarlari yoki Bosh prokurorga nazorat tartibida protest keltirish bilan bog‘liq murojaatlar soni yil sayin oshib borayapti. Ishdagi taraflar tomonidan Oliy sudga 2013 yilda 10 ming 527 ta, o‘tgan yili esa 13 mingdan ortiq nazorat tartibida protest keltirish haqidagi arizalar berilgan.<sup>1</sup>

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida nazorat tartibida ish yuritish tushunchasi hamda uning mustaqil bosqich ekanligi to‘g‘risida bir qator huquqshunos olimlar tomonidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Masalan, huquqshunos olim Sh.Sh.Shoraxmetov fikricha, fuqarolik ishlarini nazorat tartibida ko‘rish boshqa sudlov instansiyalarda ish ko‘rishdan, protest bildirish huquqiga ega bo‘lishligi, o‘zining ob’ekti, ishni ko‘rish tartibi, shakli, muddati va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. Bu tafovutlar fuqarolik ishlarini nazorat tartibida qayta ko‘rishing istisno bosqichi va istisno ahamiyatiga ega bo‘lishlidan kelib chiqadi.

Huquqshunos olim N.D.Eriashvili fikricha, nazorat tartibida ish yuritish bu qonunda belgilangan asoslarga ko‘ra, fuqarolik protsessi qatnashchilari tomonidan qonuniy kuchga kirgan quyi sudlarning qabul qilgan qarorlarini qonuniy hamda asoslilagini tekshirish maqsadida yuqori sudlarga murojaat qilishlari bo‘yicha amalga oshiradigan faoliyat tushuniladi<sup>2</sup>.

M.S.Shakaryanning fikricha, nazorat tartibida ish yuritish deganda – vakolatli sud nazorati organlarining ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan shikoyatlar, shuningdek prokuror tomonidan berilgan taqdimnomalar asosida qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarori, ajrim va qarorlarining qonuniyligini tekshirishga qaratilgan faoliyatidir<sup>3</sup>.

Protsessualist olim K.I.Komissarov fikricha, nazorat tartibida ish yuritish sud nazorati organining quyi sudlar tomonidan qabul qilingan qonuniy kuchga kirgan

<sup>1</sup> Ёдгоров Х.Б. Фуқаролик ишларини назорат тартибида кўриш: суд амалиёти ва қонунчилик // Фуқаролик суд ишларини юритишга оид қонунчиликни такомиллаштиришнинг назарий ва амалий масалалари. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. -Тошкент, “Adabiyot uchqunlari”. 2015. – Б. 74-75.

<sup>2</sup>Эриашвили Н.Д. Гражданское процессуальное право России. 2-е изд., прераб. и доп. –М.: ЮНИТИДАНА, 2007. –С 543.

<sup>3</sup> Шакарян М.С. Гражданское процессуальное право. Учебник. –М. 2004. –С. 422.

qarorlarning qonuniy hamda asosliligini tekshirish, quyi sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni to‘g‘rilash va shuning asnosida qat’iy qonunga asosan odil sudlovnii amalga oshirish uchun sud amaliyotini to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi<sup>1</sup>.

Fuqarolik ishlarini nazorat tartibida qayta ko‘rilishi o‘zining protsessual ahamiyatiga ega.

Huquqshunos olma S.V.Sokolovaning ta’kidlashicha, nazorat tartibida ish yuritishning alohida jihat (belgi)lari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- a) bekor qilish ob’ekti – qonuniy kuchga kirgan sudning qarorlari;
- b) qayta ko‘rish asoslari – moddiy hamda protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi;
- v) qayta ko‘rishning bevosita maqsadi – fuqarolar, davlat va tashkilotlarning huquq hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;
- g) nazoratni joriy qilishning bosh maqsadi va mohiyati – amaldagi qonunlarning qo‘llanilishini kuzatish, shu bilan birga, huquq normalarini sud amaliyotiga to‘g‘ri tadbiq qilishdan iborat<sup>2</sup>.

Sud hujjatlarini nazorat tartibida ko‘rishning mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovnii amalga oshirish jarayonida qonuniylikni noto‘g‘ri ta’minlash hamda qonunni buzish to‘g‘risida ogohlantirish funksiyasini amalga oshirish jarayonida;

quyi sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni to‘g‘rilash funksiyasini amalga oshirish jarayonida;

ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini qo‘shimcha ravishda himoya qilish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridaqgi huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalarini umumlashtirgan holda, nazorat tartibida ish yuritish bu fuqarolik protsessining muhim sud qarorlarini qayta tekshirish birinchi instansiya sudi, appellatsiya yoki cassatsiya sudlov hay’atlari

<sup>1</sup> Гражданский процесс. Учебник. Отв. ред. Ярков В.В. (автор главы – Комиссаров К.И.). М. 2004. –С.514.

<sup>2</sup> Соколова С.В. Обжалование вступивших в законную силу судебных актов в российском гражданском процессе: Дис.... канд. юрид. наук. –М., 2005. –С. 30.

tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrim va qarolarning qonuniy hamda asosli ekanligini, ushbu qarolarni moddiy hamda protsessual huquq normalarining to‘g‘ri qo‘llanilganligi asosida qabul qilinganligini tekshiradigan, sud amaliyotida yuzaga kelgan holatlar bo‘yicha quyi sudlarga ko‘rsatma va tushuntirishlar beradigan, sudlar faoliyatini nazorat qilib, muvofiqlashtirib turadigan sudlov instansiyasida ish yuritish tushuniladi.

### **3.2. Nazorat tartibida shikoyat (proyest) berish tartibi va muddati**

Apellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud hujjatlari ustidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 373-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar nazorat tartibida shikoyat qilishi mumkin.

Apellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud ajrimlari ustidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida ularning ustidan shikoyat berish nazarda tutilgan hollarda, hal qiluv qaroridan alohida tarzda nazorat tartibida shikoyat qilinishi va ular qayta ko‘rilishi mumkin.

Nazorat tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran **bir yil ichida** bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi.

Sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan muddat FPKning 155-moddasi qoidalariga muvofiq tiklanishi mumkin.

Shikoyat (protest) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdordagi ko‘chirma nusxalari bilan birga sudga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan shikoyat (protest) mustasno.

Zarur hollarda, sudya shikoyat berayotgan shaxs yoki protest keltirayotgan prokuror zimmasiga shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ko‘chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdorda taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin.

**Nazorat tartibidagi shikoyatda (protestda) quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:**

- 1) shikoyat (protest) berilayotgan nazorat instansiysi sudning nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) va ishdagi protsessual holati;
- 3) ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomlari), ularning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);
- 4) ishni birinchi, appellatsiya yoki cassatsiya instansiysi bo‘yicha ko‘rgan sudlar va ular tomonidan qabul qilingan sud hujjatlarining mazmuni;
- 5) ustidan shikoyat qilinayotgan (protest keltirayotgan) sud hujjati;
- 6) sud hujjati nazorat tartibida qayta ko‘rilishi uchun asoslar, bunday asoslar mavjudligidan dalolat beruvchi vajlar keltirilgan holda;
- 7) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi.

Ishda ishtirok etmagan shaxsning nazorat tartibidagi shikoyatida ustidan shikoyat qilinayotgan sud hujjati bilan uning qaysi huquqlari, erkinliklari yoki qonuniy manfaatlari buzilganligi ko‘rsatilishi kerak.

Nazorat tartibidagi shikoyat uni bergen shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak. Vakil tomonidan berilgan shikoyatga ishonchnoma yoki uning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinadi. Protest protest keltirgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak.

Nazorat tartibidagi shikoyatga (protestga) ish bo‘yicha qabul qilingan sud hujjatlarining ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi.

Nazorat tartibidagi shikoyatga davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat ham ilova qilinishi kerak.

**Apellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud hujjatlari quyidagilarning protestlariga ko‘ra nazorat tartibida qayta ko‘rilishi mumkin:**


**O‘zbekiston Respublikasi har qanday sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan** — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining protestlariga ko‘ra;

**O‘zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan** – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rnbosarlarining protestlariga ko‘ra, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarorlari mustasno;

**O‘zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan** – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rnbosarlarining protestlariga ko‘ra, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarorlari mustasno.

**Nazorat tartibidagi shikoyat quyidagi hollarda qaytariladi, agar:**

- 1) shikoyat FPK 427-moddasi birinchi qismining 1-4 bandlarida nazarda tutilgan talablarga javob bermasa;
  - 2) shikoyatga shikoyat qilinayotgan sud hujjatlarining ko‘chirma nusxalari ilova qilinmagan bo‘lsa;
  - 3) shikoyatga davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinmagan bo‘lsa, qonunda davlat bojini to‘lashni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnoma mavjud bo‘lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo‘lsa;
  - 4) nazorat tartibida shikoyat berish muddati o‘tib ketgan bo‘lsa va o‘tgan muddatni tiklash to‘g‘risida iltimosnoma mavjud bo‘lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo‘lsa;
  - 5) shikoyatni qaytarish to‘g‘risida ariza kelib tushgan bo‘lsa.
- Shikoyat bergen shaxs ushbu modda birinchi qismining 1-3-bandlarida ko‘rsatilgan holatlar bartaraf etilgandan so‘ng umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.



O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 430-moddasiga ko‘ra, nazorat tartibidagi shikoyat shikoyatga ilova qilingan materiallar bilan birga, zarur hollarda esa ishni talab qilib olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi tomonidan o‘rganiladi.

Shikoyatni o‘rganish natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi o‘z ajrimi bilan quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risida;

2) shikoyatni ish bilan birga mazmunan ko‘rish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazish haqida.

Qabul qilingan qaror to‘g‘risida nazorat tartibida shikoyat bergen shaxsga uch kunlik muddatda xabar qilinadi.

Sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi ajrimda nimalar ko‘rsatilishi kerakligi yangi fuqarolik protsessual qonunchiligidagi belgilab berildi.

**Sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi ajrimda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:**

- 1) ajrim chiqarilgan vaqt va joy;
- 2) ajrim chiqargan sudyaning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 3) nazorat tartibida shikoyat bergen shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);
- 4) ustidan shikoyat qilinayotgan sud hujjatlari;
- 5) sud hujjatlari qabul qilingan ish mazmunining qisqacha bayoni;
- 6) nazorat tartibidagi shikoyatni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga ko‘rib chiqish uchun o‘tkazishni rad etish sabablarining qisqacha bayoni.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o‘rinbosari sudyaning sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi ajrimini o‘z tashabbusiga yoki nazorat tartibida shikoyat bergen shaxsning arizasiga ko‘ra bekor qilishga va ishni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazishga haqli.

Nazorat tartibidagi shikoyatni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida ko‘rib chiqish uchun o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimni bekor qilish haqidagi ariza sud hujjati ustidan nazorat tartibida shikoyat qilish uchun belgilangan muddat doirasida berilishi mumkin (FPKning 431-moddasi).

Nazorat tartibidagi shikoyatni ko‘rish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazish to‘g‘risidagi ajrimda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) ajrim chiqarilgan vaqt va joy;
- 2) ajrim chiqargan sudyaning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 3) shikoyatni bergen shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);
- 4) ustidan shikoyat qilinayotgan sud hujjatlari;
- 5) sud hujjatlari qabul qilingan ish mazmunining qisqacha bayoni;

6) shikoyatni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazish sabablari va asoslari;

7) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan ish ko‘rildigan joy va sana.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi shikoyatni mazmunan ko‘rish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazish haqida qaror qilish bilan bir vaqtda nizolashilayotgan sud hujjatining ijrosini shikoyat bergan shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra, nazorat tartibida ish yuritish tugaguniga qadar to‘xtatib turishga haqli.

Protest kelib tushgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi uni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi o‘zi chiqargan ajrim bilan birga shikoyatni (protestni) ish bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazadi (FPKning 432-moddasi).

Nazorat tartibida shikoyat bergan shaxs uni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki undan voz kechishga haqli.

Protest keltirgan mansabdor shaxs protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki chaqirib olishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari tomonidan keltirilgan protest O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan ham to‘ldirilishi, o‘zgartirilishi yoki chaqirib olinishi mumkin.

Protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki chaqirib olishga protest ko‘rildigan sud majlisi boshlanguniga qadar yo‘l qo‘yiladi. Protest to‘ldirilganligi, o‘zgartirilganligi yoki chaqirib olinganligi haqida ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilinadi.

Shikoyatdan voz kechish qabul qilinganligi to‘g‘risida va protest chaqirib olinganida, agar sud hujjati ustidan boshqa shaxslar shikoyat qilmagan bo‘lsa, nazorat instansiyasi sudi ajrim chiqarib, nazorat tartibida ish yuritishni tugatadi (FPKning 435-moddasi).

### **3.3. Nazorat instansiyasi sudida ish ko‘rish**

Nazorat tartibida shikoyat (protest) bergen shaxs, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida ishni ko‘rish vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qilinadi. Ish muhokamasining vaqt va joyi to‘g‘risida belgilangan tartibda xabardor qilinganligi ko‘rsatilgan shaxslarning kelmaganligi ishning nazorat tartibida ko‘rilishiga to‘sqinlik qilmaydi.

Ish nazorat tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida ko‘rilganda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushuntirishlar berish uchun chaqirilishi mumkin. Bunday holda ularga ishni nazorat tartibida ko‘radigan sud majlisining vaqt va joyi to‘g‘risida xabarnoma yuboriladi. Biroq ularning kelmaganligi ishning ko‘rilishiga to‘sqinlik qilmaydi.



Ish nazorat tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining nazorat tartibidagi shikoyatni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga o‘tkazish to‘g‘risidagi ajrim chiqarilgan yoki protest O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining kotibiyatiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda, ushbu bobda nazarda tutilgan xususiyatlar inobatga olingan holda, FPKning 399-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida ishni nazorat tartibida ko‘rishda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosari ishtirok

etadi va o‘zi keltirgan protestni qo‘llab-quvvatlaydi yoki ish yuzasidan fikrini bayon etadi.

Ishni nazorat tartibida ko‘rishda barcha masalalar ko‘pchilik ovoz bilan hal etiladi.

Protestni qanoatlantirishni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar teng bo‘lib qolganda, protest rad qilingan hisoblanadi.

Ishni nazorat tartibida ko‘rish natijalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati ajrim, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosati esa qaror qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining ajrimi sudning butun tarkibi tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarori majlisda raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

Ajrim yoki qaror ishda ishtirok etuvchi shaxslarga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Amaliyotchilarning fikricha, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga ishdagi ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan 2013 yilda 10 ming 527 ta, 2014 yili esa 13 mingdan ortiq nazorat tartibida protest keltirish haqidagi arizalar berilgan.<sup>1</sup>

Binobarin ishlarni nazorat tartibida qayta ko‘rishning ortib borishiga sabablardan biri quyi turuvchi sudlarning ish yuklamalari yuqoriligidir. Masalan, statistik ma’lumotlarga qaraganda, respublika bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudida birinchi instansiyada ko‘rilayotgan fuqarolik ishlari va chiqarilayotgan sud buyruqlarining soni yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, 2016 yilning 1-yarmida FIB tumanlararo, tuman (shahar) sudida ko‘rilayotgan fuqarolik ishlari va chiqarilayotgan sud buyruqlarining soni **523.602 tani** tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017 yilning 1-yarmiga kelib **571.648 tani** tashkil etib, bir yilda **48.082 taga** ko‘paygan.

---

<sup>1</sup> Ёдгоров X. Фуқаролик ишларини назорат тартибида қўриш: суд амалиёти ва қонунчилик // “Куч-адолатда” газетаси. 8-май 2015 й.

Bu esa o‘z navbatida cudyalarning ish yuklamalari yildan-yilga ortib borishini ta’minlamoqda. Masalan, 2016 yilning 1-yarmida FIB tumanlararo, tuman (shahar) sudi sudyasining o‘rtacha oylik ish hajmi **113,2 tani** tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017 yilning 1-yarmiga kelib **142,8 tani** tashkil etgan.

Ishlarni appellatsiya tartibida ko‘rishga qaraganda kassatsiya tarti-bida ko‘rish holatlari ko‘pchilikni tashkil etmoqda (2017 yilning 1-yarmida appelyatsiya instansiyasida **3786 ta** ish ko‘rilgan bo‘lsa, kassatsiya tartibida esa **3802 ta** ish ko‘rilgan, ya’ni kassatsiyada 16 ta ish ko‘p ko‘rilgan).

2016 yilning 1-yarim yilligida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan nazorat tartibida **181 ta ish** ko‘rilgan bo‘lsa, 2017 yilning 1-yarim yilligida ushbu ko‘rsatkich **357 tani** tashkil etgan<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida 2019 yil 3-choragida nazorat tartibida bekor qilingan appellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlari ajrimlari bo‘yicha 73 ta ish bo‘yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari o‘zgarishsiz qoldirilgan.

Bu ko‘rsatkich, Qashqadaryo viloyatida 12 ta, Xorazm viloyatida 11 ta, Toshkent shahrida 10 ta, Samarqand viloyatida 10 ta, Farg‘ona viloyatida 8 tani tashkil etgan.

Sudlov hay’atida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha quyi sudlar tomonidan ishni ko‘rishda yo‘l qo‘yilgan qo‘pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan 1470 ta xususiy ajrim chiqarilgan<sup>2</sup>.

Ko‘rib turganimizdek, yildan yilga ishlarni nazorat tartibida ko‘rish soni ortib bormoqda. Bu esa nazorat tartibida ish yuritish institutini yanada takomillashtirish, mavjud qonunchilikni chuqr tahlil qilish, sud amaliyotini chuqr tahlil qilish kabi vazifalarni yuklaydi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 2016-2017 йиллардаги статистик маълумотидан.

<sup>2</sup> <http://sud.uz/> суд амалиёти умумлашмалари ва обзорлари.

### **3.4. Nazorat instansiyasi sudining vakolatlari**

#### **Nazorat instansiyasi sudining vakolatlari:**

1) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni o'zgarishsiz, nazorat tartibidagi shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmay qoldirishga;

2) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to'liq yoxud qisman bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudi yoki apellyatsiya yoxud cassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;

3) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va ishni yangidan ko'rishga yubormasdan, yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilishga;

4) FPKning 122 va 124-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qisman yoki to'liq bekor qilishga va arizani to'liq yoki qisman ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni tugatishga;

5) ish bo'yicha ilgari qabul qilingan sud hujjalardan birini o'z kuchida qoldirishga.

#### **Nazorat savollari va kazuslar**

1. Nazorat tartibida ish yuritishning mohiyati va ahamiyati va nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo'lgan vakolatli mansabdor shaxslar doirasini tahlil qiling?
2. Nazorat instansiyasi sudida protestlarni ko'rishning protsessual tartibini tahlil eting?
3. Nazorat shikoyati berish tartibi va muddatini ayting?
4. Nazorat tartibida ish ko'rish doirasini tahlil qiling?
5. Nazorat instansiyasi sudining vakolatlarini ayting?
6. Nazorat tartibidagi shikoyatni ko'rish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish to'g'risidagi ajrimda nimalar ko'rsatiladi?

## **1-kazus**

S.Norqulova uy-joy oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy deb topish to‘g‘risida A.Mamatqulovga nisbatan sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilgan. Sud da’vo arizasini qanoatlantirgan. Kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati sud qarorlarini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yubordi.

Ishga oid hujjatlarga qaraganda, nizoli uy A.Mamatqulovning nomiga rasmiylashtirilganligi sababli, zero nizoli uy nikoh davomida olingan bo‘lsada, ishga A.Mamatqulovning xotini X.Avazova jalb qilinmagan.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

## **2-kazus**

E.Salimov uuga egalik huquqini belgilash va vorislik to‘g‘risidagi guvohnomani qisman haqiqiy emas deb topish haqida A.Salimov, B. Salimov, V.Salimov va G. Salimovlarga nisbatan da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

Sud mazkur nizoli ishni hal qilishda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining mol-mulkni bo‘lishga doir moddalarini qo‘llagan holda E.Salimovning da’vo arizasini rad qilgan. Apellatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborgan. Viloyat sudi rayosati apellatsiya instansiyasi sudining ajrimini bekor qilib, hal qiluv qarorini kuchida qoldirgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati 2018 yil 28 iyunda viloyat sudi rayosati qarorini bekor qilib, apellatsiya instansiyasi ajrimini kuchida qoldirdi. Aniqlanishicha, E.Salimov bilan M.Salimov qonunda belgilangan tartibda nikoh tuzmasdan 16 yil davomida umumiy ro‘zg‘or yuritib, yashash davrida nizoli uyni sotib olishgan va birgalikda qo‘srimcha imoratlar qurishgan.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

## **O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –Toshkent, Adolat. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 4850-sonli Farmoni // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2016 yil 31 oktabr, 43-son, 497-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil 13 fevral, 6-son, 70-modda.
4. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2001. – 512 b.
5. Shorahmetov SH.SH. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 539 b.
6. Egamberdiyev E. Sud qarorlarini kassatsiya va nazorat tartibida tekshirish // J.Hayot va qonun. 1998. –B. 12-15.
7. Egamberdiyev E. Qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini qayta ko‘rish // J.Qonun nomi bilan. 1999. 1-son, -B.19-21.
5. Aliyev T.X. Nazorat instansiyasi sndlari faoliyati: nazariy va amaliy jihatlar // “Huquqdagagi bo‘shliqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari”, Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: TDYuI, 2009. –B. 332-338.
6. Aliyev T.X. Nazorat instansiyasi sudi (uning ish yurituviga doir ayrim kuzatuvlari) // J. Huquq va burch. 2009. -№10(46). –B. 46-49.

## **IV BOB. QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO‘YICHA QAYTA KO‘RISH**

### **4.1. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish tushunchasi, asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari**

Fuqarolik protsessual huquqida birinchi instansiya sudi qarorlarini appellatsiya, cassatsiya va nazorat tartibida qayta tekshirish bilan bir qatorda qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish instituti ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi. U qonuniy kuchga kirgan, ayrim hollarda xatto ijro etilgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorlarni sud yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatish, fuqarolarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini tiklash, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash, arizani qanoatlantirish va sud hal qiluv qarori, ajrimi, qarorini bekor qilish yoki ularni qayta ko‘rib chiqishni rad etish to‘g‘risidagi masalani hal qilish imkoniyatini beradi.

Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud qarorlarini qayta ko‘rish instituti faqat aniq ish bo‘yicha qaror qabul qilinishida ma’lum bo‘lmagan va e’tiborga olinmagan, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning ochilishi munosabati bilan ishni qayta ko‘rish zarur bo‘lgan hollardagina qo‘llanilishi mumkin. Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud qarorlarini qaytadan ko‘rish fuqarolik ishlarini sud nazorati tartibida ko‘rishdan, uning yo‘l qo‘yilishi shartlari, amalga oshirishning protsessual tartibi, sud qarorlarining qayta ko‘rilishi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli shaxslar doirasidan farqlanadi.

Bu to‘g‘risida Sh.Shoraxmetov shunday ta’kidlaydi: Bu institutning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunda sud xatoliklarga yo‘l qo‘ymaydi. Qayta ko‘rildigan sud qarorlarini chiqarishga suda va protsess ishtirokchilariga ish ko‘rishda ma’lum bo‘lmagach holatlarning keyinchalik aniqlanishi asos bo‘ladi<sup>1</sup>.

Demak, ishni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish uchun hech kimga, shu jumladan sudga ham ma’lum bo‘lmagan holatlar bo‘lishligi lozim, aks holda sudning bu borada yo‘l qo‘ygan xatosini nazorat tartibida qayta ko‘rib hal

---

<sup>1</sup> Шорахметов III.III. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шархлар. –Тошкент, ТДЮИ. 2010. –Б.870.

etilishi kerak bo‘ladi. Aynan yangi ochilgan holatlar ularning muhimlimgi va qaror, ajrimning chiqarilish vaqtida sudga hamda arizachiga noma’lumligi ko‘rsatadi.

Sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish chiqish o‘zining protsessual xususiyati bilan boshqa fuqarolik protsessining bosqichlaridan farq qiladi. Masalan, huquqshunos olim D.Yu. Habibullayev fikricha, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishni appellatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida ish yuritishdan farqi quyidagilar:

- 1) yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza berilganda davlat boji to‘lanmaydi, appellatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida shikoyat berilganda umumiylashtirishda davlat boji to‘lanadi;
- 2) yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni chiqargan sudga berilsa, appellatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida shikoyat yuqori instansiya sudiga beriladi;
- 3) yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza arizachiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran uch oy ichida berilsa, appellatsiya shikoyati (protest) – 20 kun, kassatsiya shikoyati (protest) – 6 oy, nazorat shikoyati (protest) – 1 yil muddat ichida beriladi<sup>1</sup>.

Huquqshunos olma Z.N.Esanova fikricha, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish fuqarolik protsessual huquqidagi sud qarorlarini qayta tekshirish institutlaridan biri sanalib, mazkur institut sub’ekti, ob’ekti, mazmuni, muddatlari, qayta ko‘rish asoslari va protsessual tartibiga ko‘ra boshqa sud qarorlarini qayta tekshirish institutlari faoliyatidan sezilarli farq qiladi<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 437-moddasiga muvofiq, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish ob’ekti bo‘lib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar hisoblanishi mumkin.

<sup>1</sup> Хабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи (саволлар ва жавоблар). –Тошкент. ТДЮУ. 2018. –Б.281-282.

<sup>2</sup> Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Махсус қисм. Муаллифлар жамоаси. –Тошкент ТДЮИ. 2012. –Б.310-313.

Hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1) arizachiga noma’lum bo‘lgan va ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar, agar ular ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lsa;

2) sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan, qonunga xilof, asossiz yokiadolatsiz qaror chiqarilishiga sabab bo‘lgan holatlar, ya’ni guvohning bila turib bergen yolg‘on ko‘rsatuvi, ekspertning bila turib bergen yolg‘on xulosasi, atayin noto‘g‘ri qilingan tarjima, qalbaki hujjatlar yoki ashyoviy dalillar;

3) taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning yoki sudyalarining mazkur ish bo‘yicha qonunga xilof, asoslantirilmagan yoxud adolatsiz sud hujjati qabul qilinishiga sabab bo‘lgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari;

4) sud hal qiluv qarorining, hukmining, ajrimining yoki qarorining yoxud shu hal qiluv qarori, ajrim va qaror chiqarilishiga sabab bo‘lgan boshqa organ qarorining bekor qilinishi.

Demak yuqoridaq asoslardan biri majud bo‘lganda sud qarorlari yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘riladi.

Ushbu asoslar bo‘yicha Sh.Shoraxmetov arizachiga ma’lum bo‘lmagan va ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar sifatida masalan, qonuniy vorislar o‘rtasida meros mulkining taqsimlanishi to‘g‘risida da’vo ishi yuzasidan qaror chiqarilganidan keyin meros mulkining yoki uning bir qismini boshqa shaxs (yoki shaxslar)ga vasiyat qilinganligi to‘g‘risida tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vasiyatnomaning keltirilishi yangi ochilgan va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holat bo‘lib ko‘riladi deb hisoblaydi. Shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan va noqonuniy, asossiz yoki adolatsiz qaror chiqarilishiga sabab bo‘lgan holatlar, ya’ni guvohning bila turib bergen yolg‘on ko‘rsatuvi, ekspertning bila turib bergen yolg‘on xulosasi atayin noto‘g‘ri qilingan tarjima, qalbaki hujjatlar yoki ashyoviy dalillar (bunday hollarda,

agar qarorning asosiga qo‘yilgan yuridik faktlar boshqa dalillar bilan yetarli darajada tasdiqlangan bo‘lsa, bu asoslar bo‘yicha ish qayta ko‘rilmasligi ham mumkin<sup>1</sup>.

#### **4.2. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza berish tartibi, muddatlari va ishni ko‘rish**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 437-moddasida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni qayta ko‘rish haqidagi ariza hal qiluv qarorini, ajrimni yoxud qarorni chiqargan sudga ishda ishtirok etgan shaxslar yoki prokuror tomonidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 329-moddasiga binoan, jismoniy va yuridik shaxslar sudning yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrimini yoki qarorni qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha davlat boji to‘lashdan ozod qilinadilar<sup>2</sup>. Ushbu qoidaning qonunchilikda belgilanishi davlatimiz tomonidan insonparvarlik prinsipini amalda ta’minlanganligi hamda fuqarolarning buzilgan huquq yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishning eng samarali tizimi joriy etilganidan dalolat beradi. Bu esa mazkur ishlarning o‘ziga xos protsessual xususiyatlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

---

<sup>1</sup> Шораҳметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шарҳлар. –Тошкент. ТДЮИ. 2010. –Б.870.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Расмий нашр. Ўзбекистон Республикааси Адлия вазирлиги. – Тошкент, Адолат. 2013.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bunday arizani hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran

uch oy muddat ichida berishi mumkin.

Ariza bilan murojaat etgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra, o'tkazib yuborilgan arizani berish muddati, agar iltimosnomada qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ochilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilgan bo'lsa va sud muddatni o'tkazib yuborish sabablarini uzrli deb topsa, sud tomonidan tiklanishi mumkin

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 440-moddasiga ko'ra, ariza berish muddati quyidagi tartibda hisoblanadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 437-moddasasi ikkinchi qismining **1-bandida** nazarda tutilgan hollarda — ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan holatlar ochilgan kundan e'tiboran;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 437-moddasasi ikkinchi qismining **2** va **3-bandalarida** nazarda tutilgan hollarda — sudning hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 437-moddasasi ikkinchi qismining **4-bandida** nazarda tutilgan hollarda — qayta ko'rilib yuborilgan hal qiluv qaroriga, ajrimga yoki qarorga asos bo'lgan hukmiga, hal qiluv qaroriga, ajrimga yoxud qarorga mazmunan qarama-qarshi bo'lgan sud hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan yoxud boshqa organning ana shunday qarori chiqarilgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi ariza sudga yozma shaklda yoxud elektron hujjat tarzida beriladi. Ariza uni berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Sud qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi (nomi), ularning yashash joyi (joylashgan yeri) va pochta manzili;
- 3) arizachi yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishni talab qilayotgan sud hujjatini qabul qilgan sudning nomi, ishning raqami, sud hujjati qabul qilingan sana;
- 4) arizachining fikriga ko'ra, sud hujjatini qayta ko'rish uchun asos bo'layotgan yangi ochilgan holatlar, ularni tasdiqlovchi hujjatlar;
- 5) ariza berayotgan shaxsning talabi;
- 6) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

#### **Arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:**

- 1) yangi ochilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalari;
- 2) arizachi qayta ko'rlishini talab etayotgan sud hujjatining ko'chirma nusxasi;
- 3) ariza vakil tomonidan imzolangan taqdirda, vakilning uni imzolashga bo'lgan vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran **bir oydan oshmagan muddatda** sud majlisida, arizachini va ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'rildi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi arizani ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

Sud yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rib, uni qanoatlantiradi va hal qiluv qarorini,

ajrimni yoki qarorni bekor qiladi yoxud ishni qayta ko‘rishni rad qiladi. Ajrim ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tilxat olib topshiriladi yoki ularga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi (FPKning 443-moddasi).

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish haqidagi arizani qanoatlantirish yoki rad qilish to‘g‘risidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Xususiy shikoyatda (protestda) xususiy shikoyat (protest) bergan shaxsning yoki uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi mumkin(FPKning 444-moddasi).

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko‘rish to‘g‘risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, ish sud tomonidan umumiy asoslarda ko‘riladi.

#### **4.3. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishning nazorat tartibida ish ko‘rishdan farqli jihatlari**

Qonuniy kuchga kirgan sud hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish instituti sub’ekti, ob’ekti, mazmuni, muddatlari, qayta ko‘rish asoslari va protsessual tartibiga ko‘ra nazorat tartibida ish yuritishdan faqr qiladi. Mazkur farqlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

<b>№</b>	<b>Qonuniy kuchga kirgan sud hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish</b>	<b>Nazorat tartibida ish yuritish</b>
1	Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza berilganda davlat boji to‘lanmaydi.	Nazorat tartibida shikoyat berilganda umumiy asoslarda davlat boji to‘lanadi.
2	Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni	Nazorat tartibida shikoyat yuqori instansiya sudiga beriladi.

	chiqargan sudga beriladi.	
3	Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risida ariza arizachiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran uch oy ichida beriladi (ayrim hollarda 6 oy).	Nazorat shikoyati (protest) berish muddati 1 yil.
4.	Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ish to‘liq qaytadan ko‘rib chiqiladi.	Nazorat tartibida quyi instansiya sudilarining moddiy va protsessual huquq normalarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llash masalalari tekshiriladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

- Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish asoslarini izohlang?
- Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishning protsessual tartibini tushuntiring?
- Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishning nazorat tartibida ish ko‘rishdan farqli jihatlarini tushuntiring?
- Sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishda davlat boji va boshqa chiqimlar masalasi qanday hal etiladi?
- Arizachiga noma’lum bo‘lgan va ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar deganda nimani tushunasiz?

## **1-kazus**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudiga da’vogar B.Toshpo‘latov javobgar T.Haqberdiyevaga nisbatan Mirobod tumani Farg‘ona yo‘li ko‘chasi 243-uy 79-xonadondan foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida da’vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudining 2010 yil 15 dekabrdagi hal qiluv qaroriga ko‘ra, da’vogarning da’vosi qanoatlantirilgan.

Oradan uch oy o‘tgandan so‘ng javobgar T.Haqberdiyeva sudning hal qiluv qarorini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilgan. Asos sifatida ish sudda ko‘rilayotgan vaqtida doimiy yashash manzilida yashamaganligi tufayli sud chaqiruv qog‘ozlarini olmaganligini va sudga kelmaganligini ko‘rsatgan.

Sud T.Haqberdiyevaning sudning hal qiluv qarorini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risidagi arizasini qanoatlantirib, ishni umumiy asoslarda ko‘rib chiqqan.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **2-kazus**

Sud fuqaro D.Jamilovni fuqaro L.Latipovni ma’muriyatga yetkazgan zararni qoplash to‘g‘risidagi fuqarolik ishi yuzasidan bergen yolg‘on ko‘rsatmasi uchun jinoiy javobgarlikka tortadi.

Hukm qonuniy kuchga kirdi, L.Latipov ishni yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish haqidagi sudga murojaat qiladi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **O‘QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

8. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2018.
9. Shoraxmetov Sh.Sh O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. – Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2010. -960 b.

10. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2001. – 512 b.
11. Shorahmetov SH.SH. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 539 b.
12. Egamberdiyev E. Sud ishlarini yuritish muammolari. O'quv qo'llanma.– Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. – 72 b.
13. Salimova I.M. Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning nazariy va amaliy masalalari" // "Jamiyat va huquq" Toshkent davlat yuridik universiteti yosh olimlar ilmiy maqolalari to'plami. –T.: TDYuU, №1/2016. -B. 99-102.

**1-ILOVA**

**O'ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI OLIY SUDI PLENUMINING**

**QARORI**

**(KO'CHIRMA)**

**SUDLAR TOMONIDAN FUQAROLIK ISHLARINI APELLYATSIYA VA  
KASSATSIYA TARTIBIDA KO'RISH AMALIYOTI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasining **Fuqarolik protsessual kodeksi** yangi tahrirda qabul qilinishi, sud amaliyotida masalalar kelib chiqayotganligi munosabati bilan hamda qonun normalarini bir xilda va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash maqsadida, «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asoslanib O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaror qiladi:

1. Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, fuqarolik ishini appellatsiya va kassatsiya tartibida qayta ko'rish sud protsessi ishtirokchilarining sud hujjatini qonuniyligi, asosliligi va adolatlilagini tekshirish huquqini ta'minlovchi muhim huquqiy institut hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (bundan buyon matnda FPK deb yuritiladi) 383, 403-moddalariga muvofiq appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish:

a) da'vo tartibida yuritiladigan ishlar bo'yicha:

da'vogar, javobgar, uchinchi shaxs, ularning vakillari, davlat boshqaruvi organining shikoyati va prokurorning protesti bo'yicha;

b) alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha:

arizachi, manfaatdor shaxs, ularning vakillari va prokurorning protesti bo'yicha qo'zg'atiladi.

Apellatsiya, kassatsiya tartibida ish yuritish, shuningdek FPK 373-moddasining birinchi qismiga muvofiq sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'lgan ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxsning shikoyati bo'yicha ham

qo‘zg‘atilishi mumkin. Ushbu shaxs sud hujjatida ko‘rsatilmagan hollarda ham, uning ustidan shikoyat qilish huquqidan foydalanadi.

Sud hujjati ustidan appellatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat qilish huquqiga, shuningdek taraflar, uchinchi shaxslar yoki qonuniy vakilning huquqiy vorislari ham ega.

Shaxsning birinchi instansiya sudida qatnashayotgan vakili, shu jumladan advokat, agar bunday huquq vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko‘rsatilgan bo‘lsagina, sud hujjati ustidan appellatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat qilishga haqli (FPK 69-moddasining ikkinchi qismi).

3. Qonunga muvofiq sudning hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati (protest) hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e’tiboran yigirma kun ichida, kassatsiya shikoyati (protest) esa, u qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy ichida berilishi mumkin.

Apellatsiya, kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati o‘tishining boshlanishi, tegishlicha hal qiluv qarori qabul qilingan yoki qonuniy kuchga kirgan kunning ertasidan hisoblanadi (FPK 152-moddasi).

4. Apellatsiya, kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini tiklash to‘g‘risidagi iltimosnama sud tomonidan FPK 155-moddasi qoidalari bo‘yicha ko‘rib chiqiladi.

Apellatsiya, kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini tiklash yoki rad qilish haqida sud ajrim chiqaradi.

O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etish to‘g‘risidagi ajrim ustidan FPK 155-moddasining oltinchi qismiga ko‘ra, xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sudning o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan shikoyat (protest) berilganda, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi shikoyatni (protestni) asosli deb topganda, birinchi instansiya sudining ajrimini bekor qilib, o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklaydi va shikoyatni (protestni) FPK 386, 406-moddalari talablariga muvofiqligini tekshirish hamda FPK 389, 409-

moddalarida ko‘rsatilgan harakatlarni bajarish uchun ishni birinchi instansiya sudiga yuboradi.

5. FPK 385, 405-moddalariga ko‘ra, appellatsiya shikoyati (protesti) appellatsiya instansiyasi sudiga, cassatsiya shikoyati (protesti) cassatsiya instansiyasi sudiga beriladi, ammo hal qiluv qarori, ajrim, qarorni qabul qilgan sudga topshiriladi.

Bevosita appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudiga berilgan shikoyat (protest) FPK 389, 409-moddalarida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish uchun sud hujjati qabul qilgan sudga yuborilishi lozim.

Har bir shikoyat (protest) kelib tushgan sanasi ko‘rsatilgan holda ro‘yxatga olinishi lozim.

6. Sudlarga tushuntirilsinki, qonunda appellatsiya, cassatsiya tartibida ish yuritish predmeti bo‘yicha muayyan istisnolar belgilangan. Jumladan, quyidagilar ustidan appellatsiya, cassatsiya tartibida shikoyat (protest) berilmaydi:

1) sud buyrug‘i;

2) qonunda shikoyat qilinishi nazarda tutilmagan yoki ishning keyingi harakatlanishiga to‘sinqilik qilmaydigan, shuningdek ish muhokamasini keyinga qoldirish haqida, shu jumladan, nikohdan ajratish haqidagi ishlar bo‘yicha er-xotinga yarashish uchun muddat tayinlanishi munosabati bilan chiqarilgan birinchi instansiya sudining ajrimlari.

7. FPK 386, 406-moddalarida appellatsiya, cassatsiya shikoyati (protesti)ning mazmuni yuzasidan muayyan talablar belgilanganligi tufayli, birinchi instansiya sudi shikoyat (protest) beruvchi shaxs tomonidan ularga rioya etilganligini tekshirishi shart.

Mazmuni FPK 386, 406-moddalari talablariga javob bermaydigan shikoyat (protest), shuningdek davlat boji hamda pochta xarajatlari to‘lanmagan shikoyat kamchiliklarini bartaraf qilish uchun muddat berilgan holda, sudyaning ajrimi bilan harakatsiz qoldiriladi. Ko‘rsatilgan muddat shikoyat (protest)ning kamchiliklarini bartaraf etishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda tayinlanishi lozim.

Ajrimda ko‘rsatilgan kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilganda, shikoyat (protest) dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi, aks

holda, shikoyat (protest) berilmagan hisoblanib, qaytariladi va bu haqda sudya tomonidan ajrim chiqariladi.

Qonun taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga hal qiluv qarori nusxasini topshirish faktini appellatsiya, kassatsiya shikoyati (protest) berish huquqini amalga oshirish muddati bilan bog‘lamasligi sababli, hal qiluv qarorining nusxasini olgandan so‘ng «asosiy» shikoyat (protest) taqdim etilishini ko‘rsatib, «dastlabki» appellatsiya shikoyati (protesti) berilishi qonunda nazarda tutilmaganligiga sudlarning e’tibori qaratilsin.

8. Qonunga muvofiq shikoyat (protest) yuzasidan sudga tushuntirishlar (e’tirozlar) ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib, taqdim etish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqi bo‘lganligini inobatga olib, ularni birinchi instansiya sudiga taqdim etilmaganligi ishni appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga to‘sinqinlik qilmaydi.

Shikoyat (protest) yuzasidan tushuntirishlar (e’tirozlar) ish appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudiga yuborilgandan so‘ng kelib tushsa, ular tegishli instansiya sudiga yuborish bilan birga nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ham yuboriladi.

9. FPK 393, 413-moddalari talablariga ko‘ra, appellatsiya, kassatsiya shikoyati bergen shaxs appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar shikoyatni to‘ldirishga, o‘zgartirishga yoki undan voz kechishga, protest keltirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror esa, protestni to‘ldirishga, o‘zgartirishga yoki qaytarib olishga haqli.

Shikoyatdan voz kechish (protestni qaytarib olish)ni qabul qilish masalasi appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan shikoyat (protest)ni ko‘rish uchun tayinlangan sud majlisida hal qilinadi va bunda shaxsning shikoyatdan voz kechish (protestni qaytarib olish) vakolati tekshirilishi zarur. FPK 69-moddasi mazmuniga ko‘ra, ishonchnomada vakilga berilgan birinchi instansiya sudi sud hujjatiga nisbatan shikoyat keltirish huquqi, agar ishonchnomada boshqa holat maxsus ko‘rsatilmagan bo‘lsa, shikoyatdan voz kechish huquqini bermaydi.

Agar shikoyatdan voz kechish qonunga zid bo‘lmasa yoki boshqa birovning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasa, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi uni qabul qilishga haqli.

Agar tegishli sud hujjatiga nisbatan boshqa shaxslar tomonidan shikoyat berilmagan bo‘lsa, sud shikoyatdan voz kechish qabul qilinganligi to‘g‘risida, shuningdek protest qaytarib olinganda ajrim chiqaradi va appellatsiya, kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Shikoyatga qo‘shilish haqidagi yozma ariza mustaqil shikoyat sifatida ko‘rib chiqilishi sababli, agar sud protsessida shikoyat bergen taraf tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar yoki uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo‘shilgan taqdirda, shikoyatdan voz kechishni qabul qilish appellatsiya, kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatishga olib kelmaydi. Shuni e’tiborga olish lozimki, ko‘rsatilgan shaxslar berilgan protestga ham qo‘shilishlari mumkin.

Apellatsiya shikoyatidan voz kechilganligi (protest qaytarib olinganligi) munosabati bilan appellatsiya tartibida ish yuritish tugatilganda, sud hujjati qonuniy kuchga kiradi.

10. FPK 166-moddasiga ko‘ra, sud taraflarni yarashtirish choralarini ko‘radi, ularga fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida nizoni hal etishga ko‘maklashadi. Apellatsiya, kassatsiya shikoyati (protesti) berilgandan keyin da’vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning da’vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida tegishli instansiya sudiga taqdim etilishi kerak. Bunda taraflarning tasdiqlash uchun taqdim etilayotgan kelishuv bitimi FPK 166, 167-moddalari talablariga javob berishi lozim.

Agar da’vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishi, javobgarning arz qilingan talablarni tan olishi yoxud taraflarning kelishuv bitimiga erishishi ishni appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi muhokamasida amalga oshirilsa, bu haqda sud majlisi bayonnomasiga yozib qo‘yiladi.

Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi da’vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da’vogarga (taraflarga)

FPK 126-moddasida nazarda tutilgan ish bo'yicha ish yuritishni tugatishning oqibatlarini tushuntirishi shart.

Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi da'vogarning da'vo talablaridan voz kechishini qabul qilishda va taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlashda hal qiluv qarorining qonuniyligi, asosliligi vaadolatliligi masalasini muhokama qilishga kirishmasdan, uni bekor qiladi va ish bo'yicha ish yuritishni tugatadi.

11. Sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarni shikoyat (protest) bo'yicha ishni appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ko'rish vaqt va joyi to'g'risida xabardor qilishi majburiy ekanligi qonunda belgilanganligi sababli, FPK 389-moddasining birinchi qismi, 409-moddasining birinchi qismi talablarining bajarmasligi FPK 397, 417-moddalariga muvofiq ishni ko'rishni keyinga qoldirishga sabab bo'ladi.

Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish ko'riliishi haqida tegishlich xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lган taqdirda ham, ulardan birortasining kelmaganlik sababini uzrli deb topsa, ishni ko'rishni keyinga qoldirishga haqli.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelmaganlik sabablari uzsiz deb topilgan taqdirda, shuningdek kelmaganlik sabablari haqida ma'lumotlar va bu sabablarni uzrli ekanligini tasdiqllovchi dalillar mavjud bo'limganda, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi shikoyat (protest) bo'yicha ishni ularning ishtirokisiz ko'rishga haqli.

12. Taraflarning biri, uchinchi shaxs yoki ularning qonuniy vakili nizoli yoxud sudning hal qiluv qarori bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan chiqib ketgan taqdirda (fuqaroning o'limi, yuridik shaxsning qayta tashkil qilinishi, boshqa shaxs foydasiga talabdan voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi va h.k.) appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi protsessual huquqiy vorislik FPK 47-moddasiga ko'ra, sud protsessining har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkinligini e'tiborga olgan holda, bunday shaxslar ularning huquqiy vorislari bilan almashtirilishiga yo'l qo'yadi hamda ularga ishga doir barcha materiallar bilan

tanishishga imkon beradi. Huquqiy vorisning protsessga kirishganligi haqida appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqaradi.

13. Sudlarning e'tibori ishlarni appellatsiya, cassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ko'rishda FPK 395, 415-moddalarida belgilangan muddatlariga, shuningdek appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'rishga o'tgan holda ham riosa qilinishi lozimligiga qaratilsin.

Shikoyat (protest) bo'yicha tushgan ishni appellatsiya, cassatsiya tartibida ko'rish muddatlari qonunda belgilangan muddat doirasida (FPK 395, 415-moddalari) ish o'ta murakkab bo'lgan yoki boshqa alohida hollarda uzaytirilishi mumkin (masalan, bir ish yurituvida bir nechta talablarning birlashtirilishi, sud jarayoni ishtirokchilarining ko'pligi, qo'shimcha hajmdagi dalillarni talab qilib olinishi va ularni tekshirish, ishga mutaxassislarni jalg qilish, sud topshiriqlarini yuborish zarurati va h.k.).

14. Qonunga ko'ra ish appellatsiya, cassatsiya tartibida ko'rila yotganda quyidagilar aniqlanishi lozim:

birinchi instansiya sudi ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni to'liq tekshirgan-tekshirmaganligi;

sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar isbotlangan-isbotlanmaganligi;

sudning hal qiluv qarorida, ajrimida, qarorida bayon etilgan xulosalar ish holatlariga muvofiqligi;

moddiy va (yoki) protsessual huquq normalari buzilgan-buzilmaganligi, ular to'g'ri qo'llanilgan-qo'llanilmaganligi;

birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan sud hujjatlari qonun talablariga muvofiqligi.

Apellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi FPK 396, 416-moddalariga muvofiq birinchi instansiya sudi sud hujjatining qonuniyligi va asoslilagini to'liq hajmda tekshiradi.

Shikoyat (protest) vajlaridan qat'i nazar, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sud hujjatini to'liq hajmda tekshirish deganda, birinchi instansiya sudi tomonidan ishning haqiqiy holatlari aniqlaganligini, moddiy va protsessual normalari to'g'ri qo'llanilganligini tekshirishni tushunmoq lozim. Shikoyat (protest) vajlaridan qat'i nazar, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'rishga o'tish, ish bo'yicha ish yuritishni tugatish yoki arizani ko'rmasdan qoldirishga asoslar bor yoki yo'qligini aniqlaydi.

15. FPK 377-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar aniqlanganda, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'rishga o'tadi va bu haqda asoslantirilgan ajrim chiqaradi.

Ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo'yicha ko'rish haqidagi ajrim bilan shikoyat (protest) berilgan sud hujjati bekor qilinmaydi va bu ajrim ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qilmasligi sababli, uning ustidan shikoyat (protest) berilmaydi.

16. Appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda taraflarga o'z protsessual huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoit yaratib berishi shart.

Appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ishning ko'riliши kollegial tarzda, uch nafar sudyadan iborat tarkibda FPK 397, 417-moddalaridanazarda tutilgan istisnolarni inobatga olgan holda, birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Bunda dastlab shikoyat bergen shaxs va uning vakilining tushuntirishlari tinglanadi. Sud hujjati ustidan har ikkala taraf shikoyat qilgan bo'lsa, birinchi bo'lib da'vogar va uning vakili so'zga chiqadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlarining tushuntirishlarida shikoyat (protest)da ko'rsatilmagan vajlarni keltirishga va qo'shimcha materiallar taqdim etishga haqli.

17. Sudlar shuni nazarda tutishi lozimki, appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi har qanday dalillarni, ular birinchi instansiya sudi muhokamasida bo‘lganligidan va yangidan taqdim etilganligidan qat’i nazar, tekshirishga haqli.

Apellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi yangi taqdim qilingan dalillarni tekshirishni rad qilishni ajrimda asoslantirishi lozim.

Apellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ekspertiza o‘tkazish, dalillarni ta’minlash va talab qilib olish, guvohlarni so‘roq qilish haqidagi va boshqa iltimosnomalarini ular birinchi instansiya sudi tomonidan rad etilganligi sababligina, rad etishga haqli emas.

Dalillar birinchi instansiya sudi uchun belgilangan tartib bo‘yicha tekshiriladi.

18. Sudlarning e’tibori birinchi instansiya sudida muhokama predmeti bo‘lmagan, shu jumladan, qarshi da’vo tariqasida keltirilgan yangi moddiy-huquqiy talablar, shuningdek tarafning da’vo muddatini qo‘llash haqida arz qilgan talabi appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi tomonidan qabul qilinishi va ko‘rilishi mumkin emasligiga qaratilsin.

Bu qoida appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi ishni birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari bo‘yicha ko‘rish chog‘ida ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan yoki xabardor qilinmagan javobgar tomonidan berilgan talablarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

19. Apellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi tomonidan ish yuritishni to‘xtatib turish FPK 10-bobida nazarda tutilgan asoslar va tartibda amalga oshiriladi.

Ish yuritish tiklanganligi to‘g‘risida tegishli instansiya sudi ajrim chiqaradi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ish ko‘rildigan kun to‘g‘risida xabardor qiladi.

20. Apellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi shikoyat (protest) bo‘yicha ishni ko‘rish natijalari yuzasidan ajrim chiqaradi.

Apellatsiya, kassatsiya instansiysi sudining e’tibori shikoyat (protest)da keltirilgan har bir vajni, uning asosli yoki asossiz ekanligi haqidagi xulosani ajrimda ko‘rsatgan holda muhokama qilish zarurligiga qaratilsin.

Shuni inobatga olish lozimki, asoslantirilgan ajrim tuzilishi keyinga qoldirilgan va sud majlisida uning xulosa qismi e'lon qilinganda, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslar asoslantirilgan ajrim bilan qachon tanishishlari mumkinligini tushuntirishi shart.

Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ajrimining xulosa qismida FPK 399, 419-moddalarida belgilangan vakolatlar doirasida ishni shikoyat (protest) bo'yicha ko'rish natijalari to'g'risidagi xulosalar, zarur hollarda esa, sud xarajatlari taqsimlanishi ko'rsatilishi kerak.

Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi qabul qilingan ajrimni o'qib eshittirganidan so'ng uning mazmun-mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirishi shart.

21. FPK 375-moddasiga muvofiq sud hujjatini appellatsiya, kassatsiya tartibida bekor qilishga yoki o'zgartirishga quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'liq aniqlanmaganligi;
- 2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;
- 3) sudning hal qiluv qarorida bayon etilgan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;
- 4) moddiy huquq normalarining va (yoki) protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi.

Qonunga ko'ra, mazmunan to'g'ri bo'lgan sud hujjati faqat rasmiy, ya'ni ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatli bo'limgan asoslar (masalan, sud muzokaralarini o'tkazish tartibi buzilganligi, davlat boji asossiz kamaytirilganligi yoki kechiktirilganligi va h.k.) bo'yicha bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik rasmiy ekanligi to'g'risidagi masala appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan har bir muayyan holda, ishning haqiqiy holatidan kelib chiqib aniqlanadi.

22. Moddiy huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri qo'llash deganda, birinchi instansiya sudi tomonidan qo'llanilishi lozim bo'lgan qonun yoki boshqa qonun hujjati qo'llanilmaganligi yoki qo'llanilishi lozim bo'limgan qonun yoki

boshqa qonun hujjati qo'llanilganligi, qonunning yoki boshqa qonun hujjatining noto'g'ri talqin qilinganligi tushuniladi.

Shuni nazarda tutish lozimki, protsessual huquq normalarini buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi faqat ishni noto'g'ri hal etilishiga olib kelgan bo'lsagina, hal qiluv qarori, ajrim, qarorni bekor qilishga asos bo'ladi.

23. FPK 399, 419-moddalariga muvofiq appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi quyidagilarga haqli:

1) hal qiluv qarorini, qarorni o'zgarishsiz qoldirishga;

2) ishni yangidan ko'rish uchun o'tkazmasdan hal qiluv qarorini, qarorni o'zgartirishga yoki hal qiluv qarorini, qarorni butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) hal qiluv qarorini, qarorni qisman yoki butunlay bekor qilishga hamda arizani ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni tugatishga.

24. Appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi, agar birinchi instansiya sudi ish holatlarini har tomonlama va to'liq aniqlab, qonuniy, asosli hamda adolatli sud hujjati chiqargan, degan xulosaga kelsa, hal qiluv qarori, ajrim, qarorni o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmasdan qoldiradi.

Bunda appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi ajrimida shikoyat yoki protest vajlari noto'g'ri va sud hujjatining bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga asos bo'lmaydi deb topilganligi sabablari ko'rsatib o'tilishi lozim.

Birinchi instansiya sudi tomonidan ishning to'g'ri hal qilinishiga ta'sir qilmagan va ta'sir qilishi mumkin bo'limgan huquq normalari buzilishiga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi FPK 379-moddasiga muvofiq ularni o'z ajrimi yoki chiqargan xususiy ajrimida ko'rsatib o'tishga haqli.

25. Shuni nazarda tutish lozimki, appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi tomonidan hal qiluv qarori bekor qilinganda, ishni yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborilishiga yo'l qo'yilmaydi (FPK 399, 419-moddalari). Bunday holda appellatsiya, cassatsiya instansiyasi sudi mavjud, shuningdek qo'shimcha taqdim etilgan materiallar (dalillar) asosida ish uchun ahamiyatga ega bo'lган

holatlarni aniqlab, o‘zi hal qiluv qarori, qarorni o‘zgartirishga yoki hal qiluv qarorini to‘liq yoki qisman bekor qilib, yangi hal qiluv qarori, qaror chiqarishga haqli.

26. Sudning hal qiluv qarorini o‘zgartirish deganda, hal qiluv qarorining xulosa qismiga o‘zgartirishlar kiritish tushuniladi.

Yangi hal qiluv qarori deganda, appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan taraflarning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida sudning asosiy xulosasini jiddiy o‘zgartiradigan ajrim qabul qilinishi tushuniladi.

27. Appellatsiya yoxud kassatsiya instansiyasi sudi FPK 122 va 124-moddalarida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga, arizani ko‘rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni tugatishga agar appellatsiya yoxud kassatsiya instansiyasi sudida shunday qaror qabul qilinishiga sabab bo‘luvchi holatlar aniqlangan bo‘lsa, haqlidir.

28. Shuni nazarda tutish lozimki, sud xarajatlarini taqsimlash masalasining hal etilmasligi yoki noto‘g‘ri hal etilishi, o‘z-o‘zidan sudning hal qiluv qarorini bekor qilishga yoki o‘zgartirishga asos bo‘lmaydi. Bunday holda appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ajrimining xulosa qismida sud xarajatlarini FPK 138 — 141-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha yangidan taqsimlash haqida ko‘rsatiladi.

29. Appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini to‘liq yoki qisman bekor qilganda va yangi hal qiluv qarori qabul qilganda, qonunda nazarda tutilgan asoslar mayjud bo‘lganda (FPK 261, 262 va 263-moddalari) quyidagilarga haqli:

ajrim yozuvda yo‘l qo‘yilgan xatolarni va aniq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatishga;

qo‘shimcha ajrim chiqarishga;

ajrimni tushuntirishga.

Ushbu masalalar sud majlisida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sud majlisi o‘tkazilish vaqtি va joyi haqida xabardor qilgan holda ko‘riladi. Biroq mazkur shaxslarning kelmasligi bu masalalarni hal etish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

30. FPK 400, 420-moddalariga muvofiq appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudiga, shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) qonunda nazarda tutilgan, shuningdek ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qiladigan birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat qilinadi.

Birinchi instansiya sudi ajrimi ustidan appellatsiya, kassatsiya tartibida xususiy shikoyat (protest) berish va ko'rish sudning hal qiluv qarori ustidan appellatsiya, kassatsiya shikoyati (protesti) berish va ko'rish uchun nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

31. Birinchi instansiya sudi ajrimi ustidan shikoyat (protest) berish uchun FPK 400-moddasining birinchi qismida belgilangan o'n kunlik muddat sud ajrimi taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran, kassatsiya tartibida ajrim ustidan shikoyat (protest) berish uchun FPK 420-moddasining birinchi qismida belgilangan olti oylik muddat esa, birinchi instansiya sudi ajrimi qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

32. FPK 402, 421-moddalariga muvofiq appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi xususiy shikoyatni (protestni) ko'rib chiqib:

1) ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga;

2) ajrimni bekor qilishga va ishni mazmunan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;

3) ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga haqli.

Ariza birinchi instansiya sudining ish yurituviga qabul qilinib va ish qo'zg'atilgandan so'ng chiqarilgan ajrim bekor qilinganda (masalan, da'veni ta'minlash, arizani ko'rmasdan qoldirish, ish yuritishni tugatish va h.k.), appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi ishni kelgusida mazmunan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuboradi.

Birinchi instansiya sudining ish qo'zg'atilgunga qadar qabul qilingan ajrimi bekor qilingan holda appellatsiya, kassatsiya instansiysi sudi ustidan shikoyat (protest) berilgan ajrim chiqarilishiga sabab bo'lgan (masalan, arizani qaytarish,

arizani qabul qilishni rad qilish to‘g‘risidagi) protsessual masalani o‘zi mazmunan hal qiladi.

33. Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rishda davlat organi yoki boshqa organ, tashkilot, mansabdor shaxs yoki fuqaroning faoliyatida aniqlangan qonun hujjatlari buzilishi faktlari bo‘yicha, ularning sud protsessida ishtirokidan qat’i nazar, xususiy ajrim chiqarishga haqli.

Ularning harakatlarida jinoyat alomatlari aniqlanganda esa, sud bu haqda jinoyat ishi qo‘zg‘atish masalasini hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda prokurorga xabar beradi.

Xususiy ajrim sud majlisida e’lon qilinadi va bayonnomada aks ettiriladi.

34. Apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudi tomonidan ish bo‘yicha chiqarilgan xususiy ajrimning qonuniyligi va asoslilagini tekshirishga hamda ushbu ajrimning chiqarilishida xatolik bo‘lganligini aniqlagan taqdirda, uni bekor qilishga haqli.

35. FPK 276-moddasi talablariga muvofiq appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudining har bir sud majlisida, shuningdek sud majlisidan tashqarida amalga oshirilgan protsessual harakat haqida bayonnomaga tuziladi.

36. Shikoyat appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudiga ish boshqa shikoyatlar bo‘yicha ko‘rilgandan so‘ng kelib tushganda, mazkur appellatsiya, kassatsiya shikoyatini bergen shaxsga sud hujjatlari ustidan nazorat tartibida shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.

37. Fuqarolik ishlarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri hal etilishini ta’minalash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga ishlarni appellatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rish bo‘yicha sud amaliyotini har chorakda umumlashtirish tavsija etilsin.

38. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001 yil 1 iyundagi «Fuqarolik ishlarini appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rish amaliyoti haqida»gi 4-sonli qarorining appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ishlarni ko‘rish

amaliyotiga taalluqli tushuntirishlari qismi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004 yil 21 maydagi «Fuqarolik ishlarini appellatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti haqida»gi 5-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi K. KAMILOV**

**Plenum kotibi, Oliy sud sudyasi I. ALIMOV**

Toshkent sh., 2018 yil 30 noyabr, 33-sod

2- ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha  
sudlov hay’ati tomonidan 2019 yilning birinchi choragida  
nazorat tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud amaliyoti**

**O B Z O R I<sup>1</sup>**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining “Sud amaliyoti obzorlarini tayyorlash va e’lon qilish to‘g‘risida” 2018 yil 27 iyuldagি RS-44-sini ta’minalash maqsadida fuqarolik ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan 2019 yilning birinchi choragida nazorat tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud amaliyoti obzori tayyorlandi.

Sudlov hay’ati tomonidan Oliy sudning ish rejasi va tasdiqlangan Dasturlar, Yo‘l xaritasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilgan. Hisobot davrida viloyat sudlarining appellatsiya instansiyasida 1 267 ta, kassatsiya instansiyasida 1 618 ta fuqarolik ishlari ko‘rilgan. Appellatsiya instansiyasida tumanlararo sudlarida chiqarilgan hal qiluv qarorlarining 177 (234) tasi yoki 0,5 foizi, kassatsiya instansiyasida 282 (387) ta yoki 0,7 foiz ishlari bo‘yicha jami 459 ta hal qiluv qarori bekor qilingan.

---

<sup>1</sup> <http://sud.uz/> суд амалиёти умумлашмалари ва обзорлари.

Apellatsiya va kassatsiya instansiyasida birinchi instansiya sudi qarorlarining bekor qilinishi Toshkent shahrida 81 ta, Toshkent viloyatida 71 ta, Farg‘ona viloyatida 45 ta, Qashqadaryo viloyatida 44 ta, Surxondaryo

viloyatida 36 tani tashkil etgan. Viloyat sudlari appellatsiya va kassatsiya instansiyalari vakolatidan to‘g‘ri foydalanish, o‘z vaqtida sud xatoliklarini to‘g‘rlash o‘rniga, ayrim hollarda o‘zlari qo‘pol xatolikka yo‘l qo‘yib, mazmunan to‘g‘ri bo‘lgan sud qarorlarining bekor qilinishiga yo‘l qo‘ygan holatlar mavjud.

Xususan, Oliy sudda nazorat tartibida bekor qilingan appellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlari ajrimlari bo‘yicha 18 ta ish bo‘yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari o‘zgarishsiz qoldirilgan.

Bu ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyatida 3 ta, Samarqand va Xorazm viloyatlarida 2 ta, Toshkent shahrida 2 tani tashkil etgan.

Sudlov hay’atida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha quyi sudlar tomonidan ishni ko‘rishda yo‘l qo‘yilgan qo‘pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan 14 ta xususiy ajrimlar chiqarilgan.

Tumanlararo sudlarining barcha sud instansiyalarida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha jami 557 ta yoki 1,5 foiz sud qarorlari bekor qilingan. Ayniqsa, Toshkent shahrida 96 ta, Toshkent viloyatida 80 ta, Farg‘ona viloyatida 67 ta, Qashqadaryo viloyatida 58 ta, Xorazm viloyatida 42 ta sud qarorlari bekor qilingan.

Bekor qilingan sud qarorlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, sudlar tomonidan uy-joy, mehnat, kredit, yer, meros hamda bitimlar bilan bog‘liq nizolar bilan bog‘liq fuqarolik ishlarini ko‘rishda moddiy va protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash natijasida xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda.

Sud amaliyoti obzori natijalariga ko‘ra, birinchi, appellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan ishlarni ko‘rishda amaldagi qonun hujatlari, shuningdek Oliy sud Plenumining qarorlarida berilgan tushuntirishlarga rioya qilmaslik holatlariga yo‘l qo‘yilayotganligini ko‘rish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining “Sud amaliyoti obzorlarini tayyorlash va e’lon qilish to‘g‘risida” 2018 yil 27 iyuldagি RS-44-18-sonli qarori 2-bandining ijrosini ta’minlash maqsadida fuqarolik ishlар bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan 2019 yilning uchinchi choragida nazorat tartibida ko‘rilgan ishlар bo‘yicha sud amaliyoti<sup>1</sup>**

**O B Z O R I**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining “Sud amaliyoti obzorlarini tayyorlash va e’lon qilish to‘g‘risida” 2018 yil 27 iyuldagи RS-44-18-sonli qarori 2-bandining ijrosini ta’minlash maqsadida fuqarolik ishlар bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan 2019 yilning uchinchi choragida nazorat tartibida ko‘rilgan ishlар bo‘yicha sud amaliyoti obzori tayyorlandi.

2019 yilning uchinchi choragi davomida sudlov hay’ati tomonidan Oliy sudning ish rejasi va tasdiqlangan Dasturlar, Yo‘l xaritasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muayyan ishlар amalga oshirilgan.

Hisobot davrida viloyat sudlarining appellatsiya instansiyasida 4011 ta, kassatsiya instansiyasida 4878 ta fuqarolik ishi ko‘rilgan. Appellatsiya instansiyasida tumanlararo sudlarida chiqarilgan hal qiluv qarorlarining 505 tasi yoki 0,4 foizi, kassatsiya instansiyasida 742 tasi yoki 0,6 foizi, jami 1247 ta hal qiluv qarori bekor qilingan.

Appellatsiya va kassatsiya instansiyasida birinchi instansiya sudi qarorlarining bekor qilinishi Toshkent shahrida 205 ta, Toshkent viloyatida 185 ta, Surxondaryo viloyatida 119 ta, Farg‘ona viloyatida 114 ta, Qashqadaryo viloyatida 113 tani tashkil etgan.

Viloyat sudlari appellatsiya va kassatsiya instansiyalari vakolatidan to‘g‘ri foydalanish, o‘z vaqtida sud xatoliklarini to‘g‘irlash o‘rniga, ayrim hollarda o‘zlar qo‘pol xatolikka yo‘l qo‘yib, mazmunan to‘g‘ri bo‘lgan sud qarorlarining bekor qilinishiga yo‘l qo‘ygan holatlar mavjud.

---

<sup>1</sup> <http://sud.uz/> суд амалиёти умумлашмалари ва обзорлари.

Xususan, Oliy sudda nazorat tartibida bekor qilingan appellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlari ajrimlari bo‘yicha 73 ta ish bo‘yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari o‘zgarishsiz qoldirilgan.

Bu ko‘rsatkich, Qashqadaryo viloyatida 12 ta, Xorazm viloyatida 11 ta, Toshkent shahrida 10 ta, Samarqand viloyatida 10 ta, Farg‘ona viloyatida 8 tani tashkil etgan.

Sudlov hay‘atida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha quyi sudlar tomonidan ishni ko‘rishda yo‘l qo‘yilgan qo‘pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan 1470 ta xususiy ajrim chiqarilgan.

Bekor qilingan sud qarorlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, sudlar tomonidan uy-joy, mehnat, kredit, yer, meros hamda bitimlar bilan bog‘liq nizolar bilan bog‘liq fuqarolik ishlarini ko‘rishda moddiy va protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash natijasida xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda.

Sud amaliyoti obzori natijalariga ko‘ra, birinchi, appellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan ishlarni ko‘rishda amaldagi qonun hujjatlari, shuningdek Oliy sud Plenumining qarorlarida berilgan tushuntirishlarga rioya qilmaslik holatlariga yo‘l qo‘yilayotganligini ko‘rish mumkin.

## **1. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha tovon puli faqatgina naf oluvchining talabi bo‘yicha undirib berilishi mumkin.**

F.Mamadaliyev nizoli uyni bank tomonidan berilgan kredit evaziga K.Xamrayevadan sotib olgan.

Mazkur uy kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yilgan. Shuningdek, uy ipotekaga qo‘yuvchi tomonidan tegishli tartibda sug‘urta qilingan.

Nizoli uyda yong‘in kelib chiqib, uyning bir qismi zararlangan.

Tuman IIB YoXB tomonidan yong‘in va ko‘zdan kechirish haqida dalolatnoma tuzilgan va da’vogar tomonidan yong‘in hodisasi haqida sug‘urta kompaniyasiga yozma xabar berilgan.

Quyi sudlar da'vo talablarni muhokama qilib, sodir bo'lgan yong'in sug'urta shartnomasining tegishli bandiga muvofiq sug'urta holati hisoblanishi haqida xulosaga kelib, sug'urta tovonini undirish to'g'risida xulosaga kelgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati quyidagi asoslarga ko'ra sud qarorlari bilan kelishmagan.

FKning 915-moddasiga ko'ra, mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqeа (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) **yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga)** bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta toponi to'lash) majburiyatini oladi.

Sug'urta kompaniyasi, da'vogar F.Mamadaliyev va Bank o'rta sida ipoteka sug'urta shartnomasi tuzilgan.

Mazkur shartnoma uch tomonlama shartnoma bo'lib, sug'urta kompaniyasi "Sug'urtalovchi", da'vogar F.Mamadaliyev – "Sug'urta qildiruvchi" va "**Bank**" – "**Naf oluvchi**" sifatida shartnomada ishtirok etgan.

Mazkur sug'urta shartnomasi Bank foydasiga tuzilganligi va ushbu shartnoma bo'yicha aynan Bank naf oluvchi ekanligi sababli, faqatgina Bank sug'urta tovonini to'lab berishni talab qilish huquqiga ega ekanligi quyi sudlarning nazaridan chetda qolgan va oqibatda sug'urta qildiruvchining da'vosi asossiz qanoatlantirilgan.

Shunga ko'ra, Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2019 yil 13 avgustdagи ajrimi bilan da'vogar F.Mamadaliyev sug'urta tovonini to'lab berishni talab qilish huquqiga ega bo'lмаган shaxs sifatida tegishli da'vogar bo'lishi mumkin emasligiga asoslanib, sud hujjatlari bekor qilinib, ish bo'yicha da'vo talablarni rad etish to'g'risida yangi qaror qabul qilingan.

## **2. Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar to‘liq qoplangan bo‘lsa-da, sud aybdor shaxsdan qo‘srimcha zararni asossiz undirib, xatolikka yo‘l qo‘ygan.**

Harbiy prokuratura javobgar A.Azizovga nisbatan jinoyat natijasida yetkazilgan zararni undirish haqidagi da’vo bilan sudga murojaat qilgan.

Quyi sndlarning qarori bilan da‘vogarning da’vo talablari to‘liq qanoatlantirilgan.

Aniqlanishicha, harbiy prokuratura tomonidan garnizonda turar joylar hisobi yuritilishi va turar joy fondidan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi ijrosi ahvoli yuzasidan tekshirish o‘tkazilib, tekshirishda sobiq harbiy xizmatchi A.Azizov viloyatda xizmat qilgan vaqtida davlat tomonidan xonodon bilan ta’milnab, hokimning qarori bilan xususiyashtirib olgan bo‘lsa-da, u xizmatini davom ettirish uchun boshqa viloyatga o‘tkazilgandan so‘ng, muqaddam davlat tomonidan uy-joy bilan ta’milanganligini yashirib, ikkinchi marotaba Mudofaa vazirligi tomonidan 2009 yilda ikkilamchi bozordan jami 32.340.000 so‘mga sotib olingan xonadonni hokimning qarori bilan o‘zining nomiga noqonuniy ravishda xususiyashtirib olganligi aniqlangan.

Mazkur holat yuzasidan harbiy prokuratura tomonidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazilib, natijasiga ko‘ra, A.Azizov jinoyat sodir etgan bo‘lsa-da, uni jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi sababli, unga nisbatan JPK 84-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan, jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish haqida qaror qabul qilingan.

Mazkur qarorga asosan A.Azizov tomonidan Bankka topshirilgan jami 32.340.000 so‘m miqdordagi moddiy zarar davlat foydasiga o‘tkazilgan.

Harbiy prokuratura xatiga asosan, baholovchi kompaniya tomonidan ikkinchi marotaba xususiyashtirilgan xonadonning hozirgi kundagi bozor bahosi hisoblanganda, uning bahosi jami 139.050.000 so‘mni tashkil etishi qayd qilingan.

Harbiy prokuraturaning jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, javobgar A.Azizov ikkilamchi bozordan jami 32.340.000 so‘mga

sotib olingan xonadonni firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritganligi aniqlanib, yetkazilgan moddiy zararning miqdori aynan 32.340.000 so‘mga baholangan va ushbu zarar javobgar tomonidan to‘liq qoplangan bo‘lsa-da, javobgar mazkur summadan tashqari boshqa zarar yetkazilganligi to‘g‘risida biron bir dalil, tergov yoki sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki hukmi mavjud bo‘lmasa-da, quyi sudlar javobgardan asossiz ravishda qo‘shimcha zarar undirganligi sababli, Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining 2019 yil 20 avgustdagি ajrimi bilan ish yuzasidan qabul qilingan sud hujjatlari bekor qilinib, da’vo talablarni rad etish to‘g‘risida yangi qaror qabul qilingan.

6-1487-19-sonli ish

### **3. Taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillarga tegishli huquqiy baho berilmaganligi sud hujjatlarini bekor qilish uchun asos bo‘lgan.**

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi (BTPJ) javobgar K.Yeleusinovga nisbatan noqonuniy to‘langan pensiya pullarini undirib berish to‘g‘risida da’vo bilan sudga murojaat qilganda, quyi sud ushbu talablarni qanoatlantirgan.

Ish hujjatlariga qaraganda, kardiologiya TMEKning xulosasi bilan javobgarga ikkinchi guruh nogironligi muddatsiz berilib, unga pensiya to‘lash uchun BTPJga ma’lumotnomma taqdim etilganligi sababli, BTPJ tomonidan 2004 yil 1 fevraldan 2015 yilga qadar javobgarga ikkinchi guruh nogironligi pensiyasi to‘lab kelingan.

TMEKning xulosasi tekshirilganda javobgarga ikkinchi guruh nogironligi bir yil muddatga tayinlanganligi, muddatsiz nogironlik haqidagi yozuv qalbakilashtirilganligi aniqlangan.

Quyi sud nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomma javobgar tomonidan qalbakilashtirilganligi asosi bilan javobgardan noqonuniy to‘langan pensiya pullarini undirish to‘g‘risida to‘xtamga kelgan bo‘lsa-da, ushbu holatga javobgar bevosita yoki bilvosita aybdor ekanligini tasdiqlovchi qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yohud jinoyat ishini reabilitatsiya asoslarisiz tugatish haqidagi tergov organi va

sudning ajimi mavjud emasligiga e'tibor bermaganligi bois, Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2019 yil 24 iyuldagagi ajimi bilan sud qarori bekor qilinib, da'vo talablarni rad etish to'g'risida yangi qaror qabul qilingan.

6-1251-19-sonli ish

**4. Da'vo talablarining asosi sud tomonidan aniqlanmaganligi sababli sudning ish yurituvni tugatish to'g'risidagi ajimi bekor qilingan.**

N.Halimova javobgar tuman madaniyat bo'limiga nisbatan ishga tiklash va majburiy progul kunlari uchun ish haqi undirish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilgan.

Sudning ajimi bilan fuqarolik ishi FPK 100-moddasining 2-bandiga asosan (eski tahrirda) ish yuritishdan tugatilgan.

Aniqlanishicha, tumanlararo sudining 2017 yil 6 oktyabrdagi hal qiluv qarori bilan da'vogarning javobgar tuman hokimligi madaniyat bo'limiga nisbatan ishga tiklash, majburiy progul kunlari uchun ish haqi va ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi da'vo talablari qisman qanoatlantirilgan.

Sud mazkur hal qiluv qarori mavjudligiga asoslangan holda fuqarolik ishini ish yuritishdan tugatishni lozim deb topgan bo'lsada, ushbu hal qiluv qaroridagi da'vogarning da'vo talablari va asosi hamda keyingi da'vo talablari va asosiga aniqlik kiritmaganligi, vaholanki sudning 2017 yil 6 oktyabrdagi qarorida da'vogarning 2017 yil 24 apreldan boshlab majburiy progul kunlari uchun ish haqi undirish to'g'risidagi da'vo talablari muhokama qilingan bo'lib, keyingi da'vo talablarda esa da'vogar 2016 yil 26 oktyabrdan 2017 yil 24 aprelgacha bo'lgan muddat uchun majburiy progul kunlarining ish haqlarini undirishni so'raganligi sudning nazaridan chetda qolgan.

Shunga ko'ra, Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2019 yil 24 iyuldagagi ajimi bilan birinchi instansiya sudining ish yurituvni tugatish haqidagi

ajrimi bekor qilinib, ish mazmunan ko‘rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborilgan.

6-1412-19-sonli ish

**5. Xodimlar va ish beruvchilarining manfaatlarini bitta vakillik organi ifoda etishi va himoya qilishi mumkin emas.**

Da’vogar Aksiyadorlik jamiyatining filiali sudga da’vo bilan murojaat qilib, unda javobgar A.Kudaynazarovdan filial foydasiga yetkazilgan moddiy zararni undirishni so‘ragan.

Tumanlararo sudining hal qiluv qarori bilan da’vogarning da’vosi qanoatlantirilgan.

Viloyat sudi appellatsiya instansiyasining ajrimi bilan da’vogar vakilining da’vodan voz kechish haqidagi arzi qabul qilinib, sudning hal qiluv qarori bekor qilingan va fuqarolik ishi ish yuritishdan tugatilgan.

Aniqlanishicha, javobgar 2018 yil 8 iyunga qadar AJ filialining boshlig‘i lavozimida ishlab kelgan.

Da’vogar AJning filiali javobgar A.Kudaynazarov 2016-2018 yillar davomida uyali telefon va internet tarmoqlari xizmatlaridan belgilangan me’yordan ortiqcha foydalanganligi natijasida yetkazilgan 37.112.686 so‘mni javobgardan undirishni so‘ragan.

Da’vo arizasi sudga taqdim etilgan paytda javobgar filial boshlig‘i lavozimidan ozod etilgan bo‘lib, hal qiluv qarori qabul qilgandan so‘ng javobgar qayta filial boshlig‘i lavozimiga tiklangan.

Ish appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rilayotgan paytda javobgar filialning boshlig‘i sifatida, filial manfaatini himoya qilib, sudda ishtirok etish uchun T.Abiniyazovning nomiga ishonchnoma bergen va vakil ushbu ishonchnoma asosida da’vo arizadan voz kechgan.

Mazkur fuqarolik ishi bo'yicha da'vogar filial xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni undirishni talab qilayotgan bo'lib, A.Kudaynazarov ish bo'yicha javobgar (xodim) bo'la turib, o'ziga nisbatan berilgan da'vo bo'yicha ish beruvchi sifatida ishonchnoma berib, bir o'zi **ham ish beruvchi**, ham **xodimning manfaatida** harakat qilishi qonun talabiga zid hisoblanishi appellatsiya instansiyasi sudining e'tiboridan chetda qolganligi bois, Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2019 yil 25 sentyabrdagi ajrimi bilan appellatsiya instansiyasining ajrimi bekor qilingan.

6-1668-19-sonli ish

## **6. Yer uchastkalari joyida o'lchab berilmaganligi shaxsning ushbu yer uchastkasiga nisbatan huquqlari vujudga kelishini istisno qiladi.**

O.Mo'minov javobgar A.Kaimovga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilib, yer maydonlarini qonunsiz egalikdan olib berishni va o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzdirishni so'ragan.

Quyi sudlarning qarori bilan da'vo qanoatlantirilgan.

Aniqlanishicha da'vogar o'tkazilgan kim oshdi savdosida qatnashib, uchta yer maydonlarini sotib olgan va unga davlat orderlari rasmiylashtirib berilgan va uning yer uchastkalariga bo'lgan huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilib, tegishli guvohnomalar rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, javobgar ham kim oshdi savdosi natijalari bo'yicha uchta yer maydonlarini sotib olgan va unga ham davlat orderlari berilib, uning yer uchastkasiga bo'lgan huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Sudlar, nizoli yer uchastkasi da'vogarga tegishli bo'lganligi, u 15 yildan ortiq foydalanib kelganligi, javobgarga tegishli yer uchastkasi massivning boshqa hududida joylashganligi asosida da'vo talabini qanoatlantirgan.

Oliy sudning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati quyidagilarga ko'ra sud hujjatlari bilan kelishmagan.

Da'vogar kim oshdi savdosida sotib olgan yer maydoni vakolatli organ tomonidan naturada (joyning o'zida) belgilanganligi va topshirilganligini tasdiqlaydigan hujjatni taqdim etmagan.

Shahar Arxitektura va qurilish boshqarmasi Yakka tartibda turar-joylar qurilishini muvofiqlashtirish, taqsimlash, nazorat qilish va doimiy monitoring o'tkazish sektorining xatida, nizoli yer maydonlari joyiga borib ko'rilganida, da'vogar va javobgar egallab turgan yer maydonlari naturada uy-joy sektorida mavjud xaritaga to'g'ri kelmasligi aniqlanganligi bildirilgan.

Shahar Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat korxonasining xatida, nizoli yer maydonining yerlarni taqsimlash xaritasi bo'yicha tahlil qilinganda, har ikki tarafning yer uchastkasi ajratish xaritasiga to'g'ri kelmaganligi bois, taraflarga rasmiylashtirilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomalar bekor qilinganligi bayon qilingan.

Oliy sudning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati mazkur dalillar nizoli yer uchastkasi da'vogarga joyning o'zida chegaralari belgilanib topshirilmaganligini, yer uchastka planlari va tavsiflari tuzilmaganligini hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilmaganligini (bekor qilinganligini) ko'rsatishligi, da'vogarning nizolashayotgan yer uchastkasiga huquqi vujudga kelmaganligi haqidagi xulosaga kelib, 2019 yil 11 iyul kuni sud hujjatlarini bekor qilish va da'vo talablarni rad etish haqida yangi qaror qabul qilgan.

6-805-19-sonli ish

**7. Jamoa kelishuvi yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining oldindan roziligin olish nazarda tutilgan bo'lsa-da, shartnomani bunday rozilikni olmay bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.**

G.Markova javobgar institutga nisbatan institut rektorining buyrug'ini

g‘ayriqonuniy deb topib, uni bekor qilish va ishga tiklash, majburiy progul kunlari uchun ish haqi hamda ma’naviy zararni undirish haqida da’vo bilan sudga murojaat qilgan.

Quyi sudlarning qarorlari bilan da’voni qanoatlantirish rad qilingan.

Aniqlanishicha, da’vogar 2007 yildan boshlab mehnat shartnomasi asosida institutning “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini o‘qituvchisi vazifasida ishlab kelgan.

Institutning buyrug‘i bilan taraflar o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 100-moddasi ikkinchi qismining 7-bandiga asosan 2018 yil 23 mart kuni bekor qilingan.

Da’vogar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 100-moddasi ikkinchi qismining 7-bandiga, ogohlantirish xati hamda Institut birlashgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi rayosatining yig‘ilish qarori asos qilib olingan.

Da’vogar mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruqni bekor qilish, ishga tiklash va majburiy bekor yurgan kunlari uchun ish haqini undirish haqidagi da’vo arizasida asos sifatida uni ishdan bo‘shatishda mehnat qonunchiligidagi bir qator normalarga rioya qilinmaganligi, institutning birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasining roziligi olinmaganligi, unga yig‘ilish o‘tkaziladigan sana va joy haqida oldindan yozma ravishda xabardor qilinmaganligini ko‘rsatgan.

Quyi sudlar da’voni rad qilishda, da’vogar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruq qonuniy ravishda chiqarilganligiga asoslangan.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosatining 2013 yil 26 yanvardagi 9-15-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkiloti to‘g‘risidagi namunaviy Nizomning 9.2-bandida boshlang‘ich tashkilot kasaba uyushmasi qo‘mitasining vakolatlarida, jamoa shartnomasida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra, xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish yoki bermaslik masalani hal qilishi qayd etilgan.

Institut ma’muriyati va kasaba uyushmasi tashkiloti o‘rtasida

2017-2020 yillar uchun tuzilgan jamoa shartnomasining 3.4-bandida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinishi faqatgina kasaba uyushma qo‘mitasining oldindan roziligin olib amalga oshirilishi ko‘rsatilgan.

Ta’lim, fan va madaniyat xodimlari institut birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasi Rayosatining 2018 yil 12 martdagи 1-3 “O”-sonli qarorida da’vogar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berilgan.

Da’vogar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishda birlashgan kasaba uyushmasi rayosatining roziliги олинганиги holati yuzasidan javobgar vakillari yuqorida nomi qayd etilgan Nizomning 9.4-bandida Rayosat saylangan kasaba uyushma qo‘mitasi o‘zining ayrim vakolatlarini, shu jumladan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish vakolati ham Rayosatga berilganligini, kasaba uyushmasining aynan qanday vakolatlarni rayosatga bergenligi Institut boshlang‘ich kasaba uyushmasi qo‘mitasi yig‘ilishi bayonnomasida ko‘rsatilganligini bayon etgan va ushbu 2017 yil 3 apreldagi bayonnomani taqdim etgan.

Ushbu bayonnomada jamoa shartnomasida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra, xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish yoki bermaslik masalasini hal etish kasaba uyushmasi rayosatiga berilganligi ko‘rsatilgan.

Biroq, Oliy sudning fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda kasaba uyushmasining roziliги олинини qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilganligi, ushbu holatda kasaba uyushmasining qonunda nazarda tutilgan vakolatni kasaba uyushmasi qo‘mitasi yig‘ilishi bayonnomasi asosida rayosatga berishi qonun talabiga zid degan xulosaga kelgan.

Bundan tashqari, sudlov hay’ati tomonidan bunday xulosaga kelishda, garchand, da’vogar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ish beruvchining 2018 yil 23 martdagи 71-sh-sonli buyrug‘i bilan bekor qilingan va birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasi rayosatining 2018 yil 12 martdagи 1-3 “O”-sonli qarori bilan rozilik berilgan bo‘lsa-da, ushbu qaror mehnat

shartnomasi bekor qilingandan keyin, ya’ni 2018 yil 30 martda institut boshlang‘ich kasaba uyushmasi qo‘mitasi yig‘ilish qarori bilan qaytadan tasdiqlanganligini inobatga olgan.

Shuningdek, sudlov hay’ati kasaba uyushmasining yig‘ilishi haqida da’vogar tegishli tartibda xabardor qilinmaganligi haqidagi xulosaga kelgan.

Vaholanki, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining 2016 yil 19 apreldagi 2-11-sonli qaroriga asosan, masalasi ko‘rilayotgan xodim tegishli kasaba uyushmasi organi majlisida ishtirok etishi uchun yetarli imkoniyat yaratilishi lozimligi, xodimga yig‘ilish o‘tkaziladigan sana va joy haqida oldindan yozma ravishda (tilxat bilan topshirish yoki pochta orqali yuborish yo‘li bilan) xabardor qilinishi shartligi, xodim majlisga uzrli sabablarga ko‘ra ishtirok etmaganda, uni ko‘rib chiqish keyinga qoldirilishi va ish beruvchiga bu haqda ma’lum qilinishi, majlisni keyinga qoldirish qonunda ko‘rsatilgan muddat doirasida belgilanishi va mazkur muddat davomida xodimning ishtirokini ta’minlashning imkon bo‘lmagan taqdirda, majlis uning ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasiga ko‘ra, nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli bo‘lishi shart.

Shunga ko‘ra, Oliy sudning fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati da’vogar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi mehnat qonunchiligi talablariga zid ravishda bekor qilingan deb hisoblab, 2019 yil 30 iyuldaggi ajrimi bilan sud hujjatlarini bekor qilib, da’vogarning da’vo talablarini qanoatlantirish to‘g‘risida yangi qaror qabul qilgan.

6-1154-19-sonli ish

**8. Ko‘chmas mulk oldi-sotdi bitimlar qonun bilan ushbu bitimlarga qo‘yilgan talablarni o‘zida aks ettirganda sud tomonidan haqiqiy deb topilishi mumkin.**

O.Yunusov sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, unda idora va omborxona binosi bo'yicha javobgar O.Tashmetova bilan o'rtalarida 2007 yil 3 sentyabrda tuzilgan oldi-sotdi bitimini haqiqiy deb topishni so'ragan.

Quyi sudlarning qarori bilan da'vo qanoatlantirilgan.

Aniqlanishicha, nizoli ko'chmas mulk notarial idora tomonidan rasmiylashtirilgan oldi-sotdi shartnomasiga ko'ra, S.Yunusovga tegishli bo'lган.

Shahar hokimining qaroriga ko'ra, S.Yunusovga tegishli bo'lган nizoli mulk uy-joy fondidan chiqarilishi va tadbirkor O.Yunusovga omborxona va idora (ofisi)dan foydalanishga ruxsat berilgan.

2007 yil 16 apreldagi ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasiga ko'ra, S.Yunusov nizoli idora va omborxona binosini, egallab turgan yer maydoni bilan javobgar O.Tashmetovaga sotgan va bino 2007 yil 17 aprelda javobgarning nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Da'vogar kiritgan da'vo talabining asosi sifatida javobgarga tegishli idora va omborxona binosini 2007 yil 3 sentyabrda 12.000.000 so'm evaziga sotib olganligini, javobgar ushbu pullarni undan to'liq qabul qilib olganligini, bu haqda tilxat yozib bergenligini, biroq shu kunga qadar rasmiylashtirib berishdan bosh tortib kelayotganligini ko'rsatgan.

Fuqarolik ishida javobgar tomonidan 2007 yil 3 sentyabrda yozilgan tilxat nusxasi mavjud bo'lib, unda nizoli mulkni da'vogarga sotganligi ko'rsatilgan.

Quyi sudlar da'vo talabini qanoatlantirishda da'vogar nizoli uy-joydan turar-joy sifatida foydalanib, keyinchalik kredit olish maqsadida noturar-joyga aylantirilganligi, javobgarning nomiga rasmiylashtirilganligi, uy-joy da'vogarning krediti bo'yicha garovga qo'yilganligi, javobgar bilan barcha oldi-berdi munosabatlari bartaraf qilingach, uy-joyni rasmiylashtirishni talab qilinganligi, uy-joyda bugungi kunga qadar oila a'zolari bilan yashab kelayotganligiga asoslangan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati quyidagilarga ko'ra sud hujjatlari bilan kelishmagan.

FK 479-moddasining birinchi qismiga ko'ra, ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasiga (ko'chmas mulkni sotish shartnomasiga) binoan sotuvchi yer

uchastkasi, bino, inshoot, kvartira yoki boshqa ko‘chmas mulkni sotib oluvchiga mulk qilib topshirishni (ushbu Kodeksning 83-moddasi) o‘z zimmasiga oladi.

FKning 480-moddasiga binoan, ko‘chmas mulkni sotish shartnomasi taraflar imzolagan yozma shakldagi bitta hujjat tarzida tuziladi (ushbu Kodeks 366-moddasining to‘rtinchi qismi).

Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasining shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga sabab bo‘ladi.

FKning 484-moddasiga asosan, ko‘chmas mulkni sotish shartnomasida ana shu mulkning bahosi nazarda tutilgan bo‘lishi lozim.

Shartnomada taraflar yozma ravishda kelishgan ko‘chmas mulkning bahosi to‘g‘risidagi shart bo‘lmasa, uni sotish to‘g‘risidagi shartnoma tuzilmagan hisoblanadi. Bunda ushbu Kodeks 356-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan baho belgilash qoidasi qo‘llanmaydi.

Agar qonunda yoki ko‘chmas mulkni sotish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yer uchastkasida joylashgan bino, inshoot yoki boshqa ko‘chmas mulkning shartnomada belgilangan bahosi ana shu ko‘chmas mulk bilan birga topshirilayotgan yer uchastkasi tegishli qismining bahosini yoki unga bo‘lgan huquqni o‘z ichiga oladi.

Ko‘chmas mulkni sotish shartnomasida ko‘chmas mulkning bahosi uning maydon birligiga yoki boshqa miqdor ko‘rsatkichiga qarab belgilangan bo‘lsa, bunday ko‘chmas mulkning to‘lanishi lozim bo‘lgan umumiy bahosi sotuvchiga topshirilgan ko‘chmas mulkning amaldagi miqdoriga asoslangan holda belgilanadi.

Ish hujjatlarida mavjud bo‘lgan tilxatdan ko‘rinishicha, nizoli ko‘chmas mulk da’vogarga sotilganligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, unda ko‘chmas mulk oldi-sotdisiga qo‘yiladigan talablar, ya’ni mulkning bahosi, javobgarga mulk qilib topshirilganligi va ko‘chmas mulkni sotishga doir boshqa shartlar qayd etilmagan.

Bundan tashqari, sudlov hay’atida 2007 yil 16 avgustda Bank va MChJ rahbari da’vogar O.Yunusov o‘rtasida kredit shartnomasi tuzilganligi, kredit shartnomasining ta’minoti uchun javobgar O.Tashmetovaga tegishli bo‘lgan nizoli mulk 2007 yil 18 avgustda garovga qo‘yilganligi aniqlangan.

Shuningdek, notarial idorasining 2007 yil 18 avgustdagি ta'qiqnomasiga asosan nizoli omborxona va idora binosiga ta'qiq qo'yilgan va ma'lumot uchun kadastr xizmati va 1-son davlat notarial idorasiga yuborilib, keyinchalik 2008 yil 18 avgustda ta'qiq bekor qilingan.

Quyi sudlar mazkur holatlarni hamda bitimlarga oid qonun hujjatlar talablarini inobatga olmasdan, FKning 112-moddasiga muvofiq bitimni haqiqiy deb hisoblashga qonuniy asos mavjud bo'lmasa-da bitimni haqiqiy deb topish to'g'risida noto'g'ri xulosaga kelganligi bois, Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2019 yil 25 iyuldagи ajrimi bilan sud hujjatlari bekor qilinib, da'vogarning da'vo talablarini rad etish to'g'risida yangi qaror qabul qilingan.

6-794-19-sonli ish

**D.Yu. Xabibullayev, J.T.Allayorov**

# **FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI**

*(fuqarolik protsessida sud hujjatlarini qayta tekshirish)*

Bosishga ruxsat etildi 27.12.2019 й. Bichimi 60x84 1/16  
“Times New Roman” garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.  
Shartli bosma tabog`i 2.8. Adadi 25 nusxada. Buyurtma №04

Bojxona institutining bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., Qozirobod 2-tor ko`chasi, 118-uy.